

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI**



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani v/b.
_____ f.f.n. Sh. Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 y.

5141100-o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

HAMRAYEVA FARIDA ULUG‘BEK QIZINING
“Badiiy matnda ilova konstruksiyalarning qo‘llanilishi
(ma’lum asar misolida)”
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: f.f.n. Haydarov Sh.

Taqrizchi: dots. Almamatov T.

BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI
kafedra yig‘ilishining (Qaror №10. 15.05.2013) qarori bilan
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri p.f.n. Q.Yadgarov. _____
(imzo)

Jizzax-2013

Mavzu: Badiiy matnda ilova konstruksiyalarning qo‘llanilishi (ma’lum asar misolida).

Ishning ryejasi:

Kirish.

I bob. Ilova konstruksiyalar va ularning o‘rganilishi.

1.1. Tilshunoslikda ilova konstruksiyalar muammosi.

1.2. Ilova konstruksiyalarning yondosh hodisalardan farqi.

II bob. Ilova konstruksiyalarning semantik-grammatik xususiyatlari.

2.1. Gap bo‘laklari shaklidagi ilovalar.

2.2. Gap shaklidagi ilovalar.

III bob. Ishning amaliyotga tatbiqi

3.1. Darsliklarda ilovalarning berilishi.

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi xalqimizning madaniy-ma’naviy hayotida ulkan ijobiy o‘zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Prezidentimiz I.A.Karimov “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” nomli kitobida “Xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to‘liq ro‘yobga chiqarish”¹ davlat ahamiyatiga molik ekanligini ta’kidlagan edi. Binobarin, o‘zbek tili tizimini mukammal tadqiq etish, uning o‘ziga xosligini, uning o‘zga tillar tabiatidan ayricha ekanligini ko‘rsatish umummilliy ahamiyatga ega jiddiy muammodir. Zero, tilning leksik, semantik-grammatik qurilishining xolis ilmiy talqini milliy mafkura va g‘oyalarning ravnaqi uchun muhim zaminlardan biridir.

Yangilangan ta’lim tizimini joriy etish bir necha yillardan beri davom etib kelayotgan uzluksiz jarayon bo‘lib qoldi. Ushbu zaruratning nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligini mavjud ta’lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy, o‘quv metodik, ilmiy-nazariy tomondan mutlaqo yangi yo‘nalishga chiqarish va asosiy maqsad o‘quvchining mustaqil ijodiy fikrlay olish qobiliyatini shakllantirish, fikr mahsulini ham yozma nutq shakllarida to‘g‘ri va ravon ifodalash, shu asosdagi ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishdan iborat bo‘lgan maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng har bir sohada tubdan yangilanishlar, o‘rganishlar ko‘zga tashlana boshladi. Bu o‘zgarishlarni biz ta’lim sohasida ham ko‘rishimiz mumkin.

Milliy istiqlol tufayli o‘zbek tilshunosligida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, tilni ilmiy tadqiq etishning yangi yo‘nalishlari yuzaga keldi. Bu o‘zgarishlar, eng avvalo, tilshunosligimizda shu kungacha erishilgan yutuqlarni milliy mafkura va milliy istiqlol g‘oyalari talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, umumlashtirish va

¹ I.A.Karimov “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” Toshkent, O‘zbekiston 1998-8.b

kelgusida bajarish lozim bo'lgan ishlarni rejalashtirish jarayonida ko'zga tashlanmoqda.

Til haqidagi qarashlari bilan tilshunoslik fanida o'z o'rniga ega bo'lgan Olmon tilshunosi Fon der Gablensning 1891-yilda nashr etilgan kitobidagi quyidagi qarashlarni tilga bo'lgan qarashlarimizni yanada to'ldirib boyitadi: "Til fikrning bo'laklarga bo'lingan holdagi ifodasi, fikr esa tushunchalarning bog'lanishidir. Lekin inson tili faqat bog'lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarigina emas, balki so'zlovchining o'z fikriga munosabatini ham ifodalashini istaydi, men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o'zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to'yintirgan xolda psixologik omil qo'shiladi".

Badiiy asar tilning aynan estetik vazifasini namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi sohani "lingvistik-poetika" – "lingvopoetika" deb nomlash, filologiyada ancha turg'unlashgan hamda "lingvistik poetika"ning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi o'rnini aniqlashtirishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Ana shu ma'noda badiiy asar tilini "stilistik aspekt"da o'rganishni "badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan o'rganish" tarzida nomlash va talqin etish maqsadga muvofiq. Bizningcha, lingvopoetik tahlil keng qamrovli jarayon. Unda nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslikning, balki sotsiologiya, psixologiya, estetika, falsafa kabi fanlar erishgan ilmiy-nazariy yutuqlardan foydalanish mumkin.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili lingvopoetik nuqtai nazardan tadqiq etilgan ishlar ko'p.

Masalan, bir qator ishlarda A.Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan o'rganilgan, ulug' mutafakkirlarning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalarning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Akademik Sh.Shoabduraxmonovning bir qator ishlarida o'zbek xalq dostonlari, shuningdek, adiblar badiiy asarlarining tili chuqur tahlil qilingan, leksik-semantik grammatik birliklarning konkret asardagi badiiy estetik qimmatini, ochib berilgan. Badiiy til masalasini ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida X.Doniyorov,

S.Mirzayev, X.Samadov, I.Qo'chqortoyev, X.Abduraxmonov, M.Mirtojiyev, M.Maxmudov va boshqalar alohida diqqatga sazovordir.

O'zbek tilshunosligida keyingi o'n yilliklarda muayyan bir ijodkorlarning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarni qo'llashdagi o'ziga xosliklarni mufassal ko'rsatishga bag'ishlangan juda ko'plab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonchlidir. Aytish lozimki, badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga e'tibor qilinganligi ko'zga tashlanadi.

Bugungi kunda gapdan yirik sintaktik butunlikni-matnning lingvistik tabiati bilan bog'liq tadqiqotlarning sifati va ko'lami ortib bormoqda. Matn muammosi hozirgi kunda jaxon tilshunosligida ham eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, badiiy matning shakillanish tarzi, badiiy matn komponentlari o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatlarning tadqiqotchilar e'tiboridan tushmayotganligi mavzuning ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, ilova konstruksiyalarning mohiyati va tabiati masalasida boshqa tilshunosliklarda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham haligacha aniq bir to'xtamga kelinmagan. Holbuki, matn tilshunosligi muammolarini tahlil va talqin qilishda ilova xodisasining ahamiyati beqiyos ekanligini isbotlab o'tirish shart emas.

Mavzuning dolzarbligi hozirgi zamon tilshunoslik, adabiyotshunoslik, ularni o'qitish metodikasi sohalarida asar poetikasi hamda tilini o'rganishga alohida e'tiborning kuchayib borayotganligi bilan ham bog'liq o'zbek tili va adabiyotining o'quv predmeti sifatida o'zaro integratsiyasini ta'minlash ehtiyoji ham, ta'lim jarayonlarida mazkur muammoning o'rganganligi ham uning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida bevosita ilova konstruksiyalarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki qarashlar F.Is'hoqov V.Maskapov kabi tilshunoslik tomonidan berilgan bo'lib, ilova konstruksiyalari parsellyativ konstruksiyalari nomi bilan ham yuritilgan.

Rus tilshunosligida bu xodisani o'rganishga bag'ishlangan talaygina ilmiy tadqiqotlar mavjud. N.S.Valgina, Yu. V.Vannikov, A.P.Velichik, M.V.Karpenko,

L.G.Xatiashvili, V.F.Milk, L.A.Popov, G.N.Ribakova, M.E.shapirolarning maxsus ishlari shular jumlasidandir. Ammo ulardan bir-biriga zid turli qarashlar ilgari surilgan.

O‘zbek tili sintaksisida ilovali gaplarni o‘rganishga sanoqli ishlargina bag‘ishlangan.

Ilova konstruksiyalar tabiati haqidagi dastlabki maqola F.Is’hoqov tomonidan 1961-yilda e’lon qilingan. Unda ilovali konstruksiyalarning asosiy belgi xususiyatlari, qo‘llanilishi, o‘rni hamda asosiy tiplari haqida ma’lumot bergan: “Ilovali konstruksiyalarning odatdagidan tashqari tartibga ega bo‘lgan aloqalar bo‘lib, bu uning tashqi belgisi sanaladi. Funktsiya e’tibori bilan esa ular so‘zlovchining nutqidagi sodda uslubni, uning og‘zaki so‘zlovchiga xos xususiyatlarini aks ettiradi.”²

Keyinroq V.Maskapov ushbu masalani dissertatsion ish sifatida tadqiq etdi. V.Maskapov F.Is’hoqov ilgari so‘rgan g‘oyalarni rivojlantirdi va faktik materiallar bilan dalilladi. U ilovali konstruksiyalarga shunday ta’rif beradi: “Ifoda jarayonida fikr nisbiy tugallangan darajada aytilgan bo‘ladi. Shundan keyin unga oldindan o‘ylanmagan nimanidir qo‘shib bayon etish so‘zlovchi nazarida zarur tuyiladi. Ana shu biroq qo‘shimcha ravishda bayon etilgan shu keyingi ifoda ilova konstruksiya hisoblanadi. Ilova konstruksiya oldingi gapning asosiy ifoda mazmunini kengaytiradi, to‘ldiradi, reallashtiradi va unga aniqlik kiritadi”.³ Og‘zaki nutq uchun bu g‘oyat tabiiy hol so‘zlashuv jarayonida asosiy gapda chala qolgan va aytilishi nihoyatda zarur hisoblangan fikr ilova konstruksiyalar orqali to‘ldirilish mumkin.

Badiiy asar tili tadqiqotchilari, xususan badiiy matnga lingvopoetik yondashuv muammolarini tadqiq etgan o‘zbek tilshunoslari ham ushbu xodisaning o‘rganilish lingvopoetik jihatdan jiddiy ahamiyatga molik ekanligi alohida takidlaydilar.⁴

² F.Isxoqov “Hozirgi zamon o‘zbektilida ilovali konstruksiyalar”, “Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari” 2-kitob Toshkent O‘z TA, 1961 y 285-289b

³ Maskapov V. “O‘zbek tilidagi ilovali konstruksiyalar xaqida” O‘zbek tili va adabiyoti 1970 y №6 B-50-54

⁴ Yo‘ldoshev M Badiiy matning lingvopoyetik tadqiqi. Filol fanlar doktori.. diss- Toshkent 2009 B-267

Ishning maqsadi. Ushbu mavzu orqali ilovali konstruksiyalarning oʻrni, ilova konstruksiyalarning grammatik va semantik xususiyatlarini aniqlash bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsad qatoriga kiradi. Vazfaga erishish uchun quyidagilarni bajarish nazarda tutiladi.

- oʻzbek va boshqa tilshunosliklarda ilova konstruksiyalarning qay darajada oʻrganilganligini aniqlash;
- oʻzbek tili badiiy matnlaridagi ilova konstruksiyalarning asosiy koʻrinishlarini aniqlash va tahlil etish;
- ilova va unga yondosh xodisalar (parsellyatsiya, parselliasiya, segmentasiya, ajratilgan boʻlak) oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlarni aniqlash;
- ilova konstruksiyalarning badiiy matning shakillanishidagi ahamiyatini hamda ularning matnning shakillanish imkoniyatlarini oʻrganish;
- ilova konstruksiyalarni lingvopoetik jihatdan oʻrganish; xususan, va qaxramonlar nutqida, manologik hamda dialogik nutqning shakillanishida ilova konstruksiyalarning asar badiiyyatini taʼminlashdagi oʻrni va rolini baholash;
- taʼlim bosqichida ilova xodisasini oʻtilishini tushuntirish.

Ishning obʼekti. Ishning tadqiq obʼektini oʻzbek badiiy adabiyotida qoʻllanilgan ilova konstruksiyalar tashkil qiladi. Tahlilga tortilgan misollar zamonaviy oʻzbek yozuvchilarining badiiy asarlari matnlaridan toʻplanadi. Nazariy manba sifatida hozirgi davr tilshunosligidagi bitiruv malakaviy ishning mavzusiga aloqador tadqiqotlardan keng foydalanildi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishi hozirgi oʻzbek tili badiiy matnida ilova lingvopoetik xususiyatlarini alohida tadqiqot sifatida maxsus oʻrganish borasidagi izlanishlardan hisoblanib, u ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega. Ishda toʻplangan dallilardan va tahlillardan oʻqish-oʻqitishning umumtaʼlim va oʻrta maxsus taʼlim turlarida nasriy asarning til xususiyatlarini tushuntirib berishda amaliy darslarni oʻtishda foydalanish kerak.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi. Ish kirish, ishning mohiyatini ochib beruvchi asosiy uch bob, umumiy xulosa foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib _____sahifani tashkil etadi.

I-bob Ilova konstruksiyalar va ularning o'rganilishi

1.1 Tilshunoslikda ilova konstruksiyalar muammosi

Til insonning mohiyati ruhiyati va vaoliyatini turli nuqtai nazardan tadqiq etuvchi eski va yangi fanlarning markaziy ayni paytda o'ta murakkab ob'ekti sifatida favqulotda o'ziga xos xodisadir. Bu sirli xodisaning bevosita reallashish, namoyon bo'lish, qismlarga ajratish, har bir qism yoki qismchani alohida tassavur eta bilish, shuningdek, bu qism yoki qismchalar o'rtasidagi mutanosib va hatto nomuttanosib munosabatlarni idrok qilishday bir bosqichga yetib kelgunga qadar inson aqli uzoq va mashaqqatli tadrijiy takomil yo'lni bosib o'tganligi shubhasiz. Inson uzligini ifodalashda aytilgan takomil yo'li jarayonlarida tildan foydalanishning, mazkur nutq parchalarini bir-biri bilan biriktirishning shunday usullarini ham kashf etganki, natijada badiiy nutq deyiladigan mo'jizakor bir vositanning badiiy stil muallifiga aylangan. Anna shunday go'zal nutqnning betakror shakllari, namunalari sifatida yuzaga kelgan so'z durdonalari- afsonalar, asotirlar, dostonlar, ertaklar, maqolu-matallar, topishmoqlar, qo'shiqlar, she'rlar, drammlar, hikoya, qisa va romanlar insoniyat badiiy dahosining ro'yob shahodatnomalari sifatida yashab kelmoqda, yaratilmoqda va albatta, bundan keyin ham yaratiladi. Bu soxir nutqning sinoatlarini tilshunoslik, adabiyotshunoslik, estetika, tarix kabi fanlar, ta'bir joiz bo'lsa, qo'lni qo'lga berib, birgalikda, hamkorlikda tadqiq etadi. Ammo yuadiiy adabiyot deyilganda anashu o'ziga xos maydondagi tilning hayotini o'rganish borasida, garchi bu muammoni o'rganishning ibtidosi eng qadimgi davrga borib taqalsa-da, munozara-yu muhokamalar, bahslar hech qachon tingan emas.

Atoqli o'zbek adabiyotshunosi O.Sharafiddinov shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deyilar. Darhaqiqat, yozuvchi hilma-xil insoniy harakterlarni tadqiq qilindi. Jamiyat rivojiga yordam beradigan

salmoqli xaqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi"⁵.

Bu o'rinda yirik adib va adabiyotshunos P.Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: "Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglar, chiziqlar, bo'yoqlar vositasi bilan emas, so'zlar vositasida yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til har qanday badiiy asarning spesifikasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi".⁶ Badiiy matn badiiy asr mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyalari asosida shakillangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq, berish, xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarliklik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilanavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi darajada ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi.

Tasvirlanayotgan voqelikka uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, hayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakillantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan badiiy matn, ma'lumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakillantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanovor ifoda shakillaridan keng foydalaniladi. So'zlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik-semantik, ritmik-intanatsion birliklarning qo'llanilishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi.

⁵ Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlandi // Uzbekiston adabiyoti va san'ati. 1986, 5 sentyabr

⁶ Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. Adabiy asar. - Toshkent: fan, 1978. 312-bet.

Badiiy matnning lisoniy xususiyalaridan eng muhimi ham shundaki, unda emotsional bo‘yo‘qdor so‘zlarga, sheva so‘zlariga, jargon va argonlarga, ko‘chma ma’noli so‘zlarga, ma’nodosh, shakldosh, o‘xshash talaffuzli, va oid ma’noli so‘zlarga, shuningdek, ibora, maqol va matal, ilova va aforizm kabi birliklarga keng o‘rin beriladi.⁷

Badiiy asar tilini “stilistik aspekt”da o‘rganishga qaraganda lingvopoetik o‘rganish bir qadar ilgari qo‘yilgan qadam va ancha samarali yo‘l ekanligi bugun oydinlashib bormoqda. Ayni paytda badiiy asar tilining lingvopoetik tahlili lingvostilistik tahlili natijalariga asoslanishi ham tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanadi.

Mamnuniyat bilan aytish lozimki, o‘zbek tilshunoslikda lingvostilistik yo‘nalishda, ta’kidlab o‘tilganday, juda katta miqdordagi ilmiy ishlar yaratildi va yaratilmoqda. Hech shubhasiz, ana shu lingvostilistik yo‘nalishdagi ilmiy ishlarda turlangan tajribalar, nazariy xulosalar tabiiy ravishda keyingi o‘n yilliklarda o‘zbek tilshunoslikda ham lingvopoetik yo‘nalishdagi tadqiqotlarning paydo bulishiga olib keldi. Ularda o‘zbek adabiyotidagi yuksak mahorat bilan yaratilgan she’riy va nasriy asarlar, fol’klor na’munalarining tili ana shu nuqtai nazardan tahlil qilingan, tegishli ilmiy xulosalar umumlashtirilgan.

O‘zbek so‘zlashuv nutqida shunday qurilmalar mavjudki, ular o‘zlarining grammatik va semantik, intonatsion xususiyati bilan o‘zbek adabiy tilidagi gap qurilishida farq qiladi. Ularni adabiy tilda mavjud bo‘lgan bironta an’anaviy qolipga solib bo‘lmaydi. Ilova qurilmalarning ba’zilari tobelanish-ergashish, ba’zilari tenglik asosida, bog‘langan gaplarga o‘xshaydi. Ilova qurilma tilning og‘zaki shakli uchun tipik holdir. Ilova qurilmalar asosiy gap bilan birgalikda murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Bunday qurilma o‘ziga o‘xshash qurilmalardan, jumladan, ajratilgan bo‘laklar, to‘liqsiz gaplardan farqli tomonlariga egadir.

⁷ M.Yo‘ldoshev, Q.Yodgorov “Badiiy matnning lisoniy tahlili” T.2007

Adabiy tilimizda turli hil kirish soʻz va iboralar, kirish gaplar, ajratilgan boʻlaklar, ilova konstruksiyalari ham rivoj topdi va badiiy adabiyot tilida qoʻllash turli darajada kengaydi va rivojlandi.

Soʻzlashuv nutqi taʼsirida, badiiy adabiyotda va adabiy tilda ilova qurilmalarning qoʻllanish doirasi kengaydi. Soʻzlashuv uslubiga xos boʻlgan bu xil qurilmalar adabiy tilimizga kundan-kun oʻzlashib bormoqda. Bu narsani ikki omil bilan izohlash mumkin. Birinchidan, yozuvchilarmizning xalq tili boyligidan ijodiy foydalana olganlari boʻlsa, ikkinchidan, madaniyatimizning gurkirab oʻsishi, radio va televideniya orqali soʻzlashuv nutqi vositalaridan keng foydalanish bu holat adabiy til ogʻzaki shaklining rivojlanishiga olib kelishi bilan xarakterlanadi.⁸

Oʻzbek tilshunosligida ilova konstruksilari parsellyatsiya tushunchasi bilan ham ifodalanib kelingan.

Oʻzbek tilshunosligida parsellyativ konstruksiyalarni oʻrganish XX asrning 60-yillarida boshlangan. F.Isʼhoqov, V.Maskapov kabi tilshunoslar mazkur hodisani ilova konstruksiyalar nomi ostida tadqiq qilganlar, V.Maskapov ilova konstruksiyalariga quyidagicha taʼriflaydi.: “Ifoda jarayonida fikr nisbiy tugallangan darajada aytilgan boʻladi” Shundan keyin unga oldindan oʻylanmagan nimanidir qoʻshib bayon etish soʻzlovchi nazarida zarur tuyiladi. Ana shu qoʻshimcha izoh tugallangan pauzadan soʻng bayon etiladi. Oldindan oʻylanmagan, biorq qoʻshimcha ravishda bayon etilgan shu keyingi ifoda ilova konstruksiya hisoblanadi. Masalan: *U jodugar ekan. Oʻzi zamonaviy kiyingan, qirq qirq besh yoshlarda. Koʻzlari olovdek yonarmish. Qoʻrqinchli.* Lekin badiyot talabi bilan atayin gap tarkibidan ajratib olib alohida gap tarzida berilishi ham mumkin. Mutaxassislar bunday konstruksiyalarning asosiy vazifasi sifatida oʻzidan oldin kelgan gapning ifoda mazmunini kengaytirishi, toʻldirishi va aniiqlik kiritishi ekanligini koʻrsatishadi.⁹

Oʻzbek tili ekspressiv sintaksisi masalalarini atroflicha tekshirish sintaktik uslubiyat muammolarini ilmiy asosda tadqiq etish nuqtai nazaridan ham alohida

⁸Musayev A. “Oʻzbek soʻzlashuv nutqi uslubida gap boʻlaklari tartibi” T 2011

⁹Yoʻldoshev M., Yodgorov Q. “Badiiy matnning lisoniy tahlili” T.2007

ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan o'zbek tilshunosligida ilova tuzilmalar atamasi bilan yuritilayotgan, ekspressiv sintaksis bahsiga bevosita aloqador bo'lgan hodisani yetarli darajada tasvirlab va tavsiflab berish tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O'zbek tili sintaksisida ilovali gaplarni o'rganishga sanoqli ishlargina bag'ishlangan. Bu ishlar hodisaning ayrim jihatlarini tasvirlab berganligi, uni maxsus kategoriya sifatida taqdid etish zarurligi masalasini o'rta tashlaganligi bilan e'tiborga loyiqdir.

Rus tilshunosligida bu hodisani o'rganishga bag'ishlangan talaygina ilmiy tadqiqotlar mavjud. N.S.Valgina, Yu.V.Vannikov, A.P. Velichuk, M.V.Karpenko, S.Ye.Kryuchkov, V.F.Milk, L.A.Popova, G.N.Ribakova, L.G.Xatiashvili, M.Ye.Shapirlarning maxsus ishlari shular jumlasidandir. Ammo ularda bir-biriga zid turli qarashli ilgari surilgan. Bu "присоединения", "присоединительные конструкции" terminlarini talqin etishdagi xilma-xillikda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu atamani turli ma'noda talqin etishdan qochish hamda mazkur hodisaning o'ziga xos ko'rinishlarini kengroq o'rganish maqsadida "bosqichli gaplar" ("ступенчатые предложения"), biriktirilgan to'zilma ("подключенные конструкции") atamaları ham qo'llangan.¹⁰

O'zbek tilshunosligida bu xodisa yaqin yillargacha gapning ajratilgan bo'laklari, so'z tartibi, to'liqsiz va nominativ gaplar doirasida qarab kelinardi. Bu an'ana ko'pgina ishlarda hozirgacha davom ettirilmoqda. O'zbek tili sintaksisida ilovali to'zilmalarni alohida kategoriya sifatida o'rganish zarurligi dastlab F.Is'hoqovning "Hozirgi zamon o'zbek tilida ilovali konstruksiyalar" nomli maqolasida (23) ilgari surilgan. Unda ilovali to'zilmalarning asosiy xususiyatlari asosiy qismning o'ziga aloqador lekin odatdan tashqari tartibga ega bo'lgan ayrim so'z va sintaktik guruhlarni ergashtirib, biriktirib kelishi, bu qismlar o'rtasida uzuq-uzuq aloqalarning bo'lishi bayon qilingan.¹¹ Ilovalarning biriktiruvchi vositalar yordamida va biriktiruvchi vositalarsiz birikishi hamda uyushiq va

¹⁰ Toshaliyev I. "Hozirgi o'zbek tili, sintaksis, sinaktik va sintagmatik qayta bo'linish. "Parselliyatsiya" Toshkent-2004 (yetakchisi)

¹¹ Toshaliyev I. "Hozirgi o'zbek tili, sintaksis, sinaktik va sintagmatik qayta bo'linish. "Parselliyatsiya" Toshkent-2004 (yetakchisi)

ajratilgan bo‘laklarga, to‘liqsiz va qo‘shma gaplarga o‘xshab ketishi, shuningdek, ayrim funksional-semantiik turlari ko‘rsatiladi. Bu ish ilovali to‘zilmalarning asosiy va umumiy jihatlarini tasvirlab berganligi, uni maxsus kategoriya sifatida o‘rganish zarurligini o‘rtaga tashlaganligi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, V.Maskopovning o‘zbek tilida ilovali konstruksiyalarga bag‘ishlangan ikkita kichik maqolasi ma’lum. Ularda ilovalarning material jihatdan ifodalanish turlari va ularning biror gap bo‘lagi hamda gaplar sifatida shakllanishi qayd etiladi. Ilovali to‘zilmalarni to‘liqsiz va ajratilgan bo‘laklardan farqlanishi aytiladi.¹²

Umuman, ayrim nuqtalari hisobga olmaganda, F.Is’hoqov va V.Maskopovlarning ishlarida keltirilgan asosiy fikrlash bir-biridan uncha farq qilmaydi.

To‘g‘ri, V.Maskopov ikkinchi maqolasida (30) ayrim tadqiqotchilar, xususan, A.Boboyeva va F.Is’hoqovlar bilan munozaraga kirishib, ba’zi masalalarga aniqlik kiritishga o‘rinadi. Bundan u ba’zi chalkashliklarga yo‘l qo‘yadi. (Bu uning nomzodlik dissertatsiyasida ham o‘z ifodasini topgan) F.Is’hoqovni ilovali to‘zilmalarning asosiy gap bilan munosabatini, gapdagi o‘rni, vazifasi, bog‘lovchili va bog‘lovchisiz turlari borligi haqida fikr yuritmagan, deb bir yoqlama tanqid qiladi. Ikkinchidan, ilovali to‘zilmalar bilan bog‘liq boshqa ko‘pgina muammolar va munozarali masalalar ham borki, ular atroflicha tekshirishni talab qiladi.

Ilovali to‘zilmalarning o‘rganilishiga doir shu mulohazalarning o‘ziyoq bu xodisa monografik asosda maxsus tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuni ham aytish kerakki, ko‘pgina lingvistik adabiyotlarda ilovali to‘zilmalarning og‘zaki so‘zlashuvga xos bo‘lgan, tayyorgarliksiz bayon qilingan va yozma-lisoniy nutqqa xos bo‘lgan, tayyorgarlik bilan ma’lum maqsadida qo‘llangan funksional turlari ajratiladi. So‘ngi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda esa yozma nutqda ishlatilgan ilovali to‘zilmalarni adabiy til ekspressiv sintaksisning maxsus uslubiy yo‘sini sifatida “parsellyatsiya”, “parsellyativ konstruksiya”,

¹² Toshaliyev I. “Hozirgi o‘zbek tili, sintaksis, sinaktik va sintagmatik qayta bo‘linish. “Parsellyatsiya” Toshkent-2004 (yetakchisi)

ogʻzaki soʻzlashuvda hamda persanajlar nutqida qoʻllanganlarini “ilova” (“ilova konstruksiya”-prisoidineniya”, “priisoidinitel’naya konstruksiya”) atamaları bilan atash taqlif qilinmoqda..(15) Shu jihatdan V.Ya. Bulaxovning quyidagi fikri eʼtiborga moikdir: “Biz tezkor xotira malakasining yetishmasligi tufayli gapni ongsiz ravishda boʻlaklashni ilova deb ataymiz, parsellyatsiya esa uslubiy maqsadlarda amalga oshirilgan ongli boʻlaklashdir” (14,144) Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, ilova konstruksiyalari va ular bilan bogʻliq boʻlgan muammolar tilshunoslarimiz tomonidan toʻlaligicha xal etilgani yoʻq. Bu esa oʻz navbatida bu xodisani yanada chuquroq oʻrganishga daʼvat etadi.¹³

1.2 Ilovali konstruksiyalarning yondosh hodisalardan farqi

Estetik butunlik boʻlgan badiiy asarni oʻrganishda tilning asos ekanligi ochiq haqiqat boʻlsa-da, baʼzan bu hol shubha ostiga olinadi. N.M.Shanskiy juda oʻrinli takʼidlagandek, badiiy matnning lisoniy tahlili uning gʻoyaviy badiiy xususiyatlarini tushunish uchun benixoya muhimdir.”Axir, biron-bir asarning gʻoyaviy mazmunini, uning boshqa asarlardan farqlab turuvchi badiiy xususiyatlarini oʻrganish uchun, estetik huzur baxsh etadigan, tuygularni tarbiyalaydigan va tafakkurini rivojlantiradigan, aql va qalbni harakatga keltiradigan informativ va obrazli butunlik bulmish badiiy asarni toʻgʻri idrok etmoq uchun, eng avvalo, uni toʻgʻri tushunmoq lozim. Adabiy matnni (boshqa har qanday nutqiy asarni ham) toʻgʻri, haqqiy, adekvat-ziddiyatsiz tushunmasdan turib, uning gʻoyaviy nuqtai nazardan tahlili haqida ham, boshqa baholar qatori filologik bahosi haqida ham hech qanday gap boʻlishi mumkin emas...Hamonki til adabiyotning birlamchi unsuri ekan, badiiy matnning lisoniy tahlili ham uni adabiyotshunoslik jihatdan va stilistik

¹³ Toshaliyev I. “Hozirgi oʻzbek tili, sintaksis, sinaktik va sintagmatik qayta boʻlinish. “Parselliyatsiya” Toshkent-2004 (yetakchisi)

o'rganishning poydevoridir.”¹⁴ Sir emaski, badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam xodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g'oya –fikir-mazmunni tushunish, anglash chinakam ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlako o'ziga xos, goh ochik, goh yashirin, turli ishoralar, tag ma'nolar, kosa tagidagi nimkosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma'nosini to'g'ri anglash ma'naviy-madaniy, aqliy-xissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin buladi. Har kanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va etarli bo'lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun bundan tashqari ayni paytda badiiy matnning o'ziga xos lisoniy-poetik konuniyatlarini ham bilish lozim buladi.

Ma'lumki, badiiy matn ijodkorlarning dunyoni, voqelikni obrazli estetik idrok qilishi mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Badiiy matnning yaratilishi ham, uning o'zi ham, badiiy butunlik sifatida o'quvchi (lingvistik) tomonidan tushunilishi, idrok etilishi ham murakkab estetik faoliyatdir. Shunga ko'ra badiiy matnni tushunish, unda aytilmoqchi bo'lgan fikr-g'oyani tugal' anglab yetish, to'lasicha estetik idrok etish u qadar ham oson ish emas. Muallifning aytomoqchi bo'lgan gapi badiiy matnda butunlay ochiq, yalang'och bir tarzda, ikki karra ikki to'rt qabilida ifodalanmaydi. Badiiy matnda muallifning asosiy gapi yashirin, turli ishoralar vositasida, obrazlar, ko'chimlar tagma'nolar kabi badiyatning o'ziga xos unsurlari orqali beriladi.¹⁵

Badiiy matnda ilovali konstruksiyalarning qo'llanilishi va ularning yondosh xodisalardan farqi masalasi ham hozirgi va shu kungacha vaqt mobaynida tilshunoslar tomonidan mulohazalarga sabab bo'lmoqda.

Ilova va parsellyasiya

O'zbek tilshunosligida bevosita parsellyativ konstruksiyalarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ish sifatida I.Toshaliyevning o'quv qo'llanmasi tilga olish

¹⁴ Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. -Л.:просвещение, 1990. С.5-6.

¹⁵ Yuldoshev M. "Badiiy matn lingvopoetikasi" Toshkent-2008

mumkin, unda parsellyatsiya xodisasi haqida ancha muncha ma'lumot berilgan.¹⁶ Bir gap doirasida aytilishi mumkin bo'lgan fikrning "bo'laklanib" ifodalanishi masalasi tilshunoslar diqqatini har doim o'ziga jalb qilib kelgan, ammo o'zbek tilshunosligida bu xodisa boshqa xodisalar bilan xususan, ilova konstruksiyalar bilan aralash talqin qilingan. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab parsellyativ konstruksiyalar F.Is'hoqov,¹⁷ A.Abdullayev,¹⁸ B.Maskopov,¹⁹ M.Turopova²⁰ kabi olimlar tomonidan "ilova konstruksiyalar" nomi ostida tekshirilgan. Keyinroq ayrim tadqiqotchilar parsellyativ va ilova qurilmalarni farqlashga harakat qilgan bo'lsalarda, asosan sintaktik deravasiya doirasi bilangina cheklanganlar.

Parsellyatsiya xodisasi boshqa tilshunoslarda ham turli nuqtai nazarlardan u yoki bu darajada o'rganilgan. Masalan, rus tilshunosligida 1965 yilda mazkur matn tadqiqiga bag'ishlangan bir necha nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Oxirgi o'n yilda parsellyatsiya xodisasining struktural, semantik-sintaktik, stilistik xususiyatlarini o'rganish, bu xodisaning badiiy matn tarkibidagi, gazeta tilidagi ekspressiv ishtirokini, poetik qimmatini tayin etish borasidagi tadqiqotlar tilshunoslari tomonidan juda ham faol tarzda olib borilmoqda. Bu o'rinda A.E.Sumarev, Yu.V.Bogayavlenskaya, I.V.Alekseyenko, R.O.Zelepukin, M.O.Stepkina kabi tadqiqotchilarning nomzodlik dissertatsiyalarini tilga olishning o'zi kifoya.²¹

Tilshunos M.O.Stupkina parsellyatsiya va ilova hodisalarini bir biridan farqlamaslik turli tilshunoslarda bugungi kunda ham davom etayotganligini ta'kidlaydi va bu borada quyidagi to'rt xil qarash mavjud ekanligini qayd etadi:

1. Parsellyatsiya-ilovaning bir ko'rinishi.
2. parsellyatsiya va ilova –mustaqil xodisalar
3. parsellyatsiya-ekspressiv sintaksi usuli, ilova-aloqa vositasining semanetik ottenkasi .

¹⁶ Haydarov Sh. "Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo'llanilishi" avtoreferat T-2011

¹⁷ Ishoqov F. "Hozirgi zamon o'zbek tilida ilovali konstruksiyalar" Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari, 2-kitob Toshkent. O'z Fanlar akademiyasi.

¹⁸ Abdullayev A. "ilova ko'chirma gapli konstruksiyalarning o'zbek tili va adabiyoti" 1982y №2-B. 50-52.

¹⁹ Маскапов Б. "Присоединительные конструкции в узбекском языке" автореферат.

²⁰ Turpova M. Ilova konstruksiyaning boshqa sintaktik konstruksiyalarda farqi. O'zbek tili adabiyoti. -1980. №1-B.53-56

²¹ Haydarov Sh. "Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo'llanilishi" avtoreferat T-2011

O'zbek tilshunosligidagi F.Is'hoqov va B.Maskopovlarning bu muammo borasidagi talqinlarini ayni tasnifdagi, asosan, birinchi va uchinchi guruh qarashlarga to'g'ri kelishini aytib o'tish mumkin. I.Toshaliyev tomonidan parsellyatsiya haqida berilgan tavsiflarda to'rtinchi guruh qarashlariga yaqinlik seziladi, ammo u aksar hollarda parsellyatsiyalangan konstruksiyalarda qo'shimcha, ikkilamchi, keyin esga kelib qolgan ma'lumot ifodalanishi ta'kidlar ekan, uning ham parsellyatsiya va ilovani qorishtirganligini sezmaslik mumkin emas.

Ilovaning bevosita mantiqiy-lingvistik mohiyati mavjud sintaktik butunlikka boshqa sintaktik birlikni ilova qilishidan, parsellyatsiyaning bevosita mantiqiy lingvistik mohiyati mavjud sintaktik butunlikni kommunikativ bo'laklashdan iborat. Ana shu jiddiy farqni hisobga olgan holda ayrim tadqiqotchilar parsellyatsiya va ilovaning asosiy gap bilan munosabatidagi prinsipial o'ziga xoslikka e'tiborni qaratadilar. Masalan, Y.V.Aleksenko parsellyativ va ilova konstruksiyalarda sintaktik jarayonlardagi yo'nalishlarning farqli ekanligini ta'kidlaydi. U juda o'rinli ravishda ko'rsatganday, "ilovalanadigan bo'lak (qism) asos" strukturani bo'laklamaydi, balki to'ldiradi. Bu yerda yo'nalish chapga: (markazga intilma). Parsellyatsiyalangan konstruksiyalarda esa yo'nalish aksincha, markazdan (konstruksiyaning bosh mantiqiy unsuridan, yani bazis qismdan) o'nga yo'nalgan: (markazdan qochma). Bu fikrga to'la qo'shilish mumkin. Chunki ilovadagi va parsellyatsiyadagi sintaktik-kommunikativ jarayonlarni bu tarzda, ya'ni markazga intilma va markazdan qochma yo'nalish sifatida farqlash bu ikki xodisa mohiyatidagi farqni yanada aniq tasavvur qilishga yaxshi imkoniyat beradi. Xullas, ilova konstruksiyalar va parsellyatsiya o'rtasida bir qator o'xshashliklar bo'lsada, ular o'rtasida jiddiy farqlar mavjud. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ilovali konstruksiyalarda ilova qism kommunikativ birlik maqomida bo'lishi ham, bo'lmasligi mumkin, parsellyatsiyalangan konstruksiyalarda parsellyat hamisha alohida kommunikativ birlik maqomida bo'ladi, Shuning uchun

ham parsellyat asosiy gapdan hamma vaqt final va nofinal (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire kabi) tinish belgilari bilan ajratilaveradi.

2. Ilova gapning estetik strukturasiga xos, parsellyatsiya gapning funksional tomoniga, dinamik strukturasiga xos xodisadir.

3. Ilova asosiy gap ichiga konstruksiyaning leksik grammatik tarkibini o'zgartirmagan holda kira olmaydi, parsellyatsiya esa asosiy gap ichiga konstruksiyaning leksik-grammatik tarkibini o'zgartirmagan holda kira oladi.

4. Ilovada qo'shimcha ma'lumot, to'ldirish, izoh maqsadi bilan ifoda ilova qilinadi. Parsellyatsiyada esa mavjud ma'lumotning muhim qismini ta'kidlash maqsadi bilan shu qism ifodasi ajratiladi.

5. Ilova va parsellyatsiyalangan konstruksiyalangan sintaktik jarayonlarning yo'nalishi bir-biridan prinsipial farq qilad, ya'ni parsellyatsiyadagi sintaktik jarayon harakati markazdan qochma o'nga yo'nalgan, ilovali konstruksiyalarda esa sintaktik jarayon harakati markazga intilma-chapga yo'nalgan.²²

Ilova va segmentasiya

Yozuvchilar badiiy matnda ilova konstruksiyalariga murojaat qilish orqali, badiiy matnning emotsional-ekspressivligini, o'quvchiga tushunarli bo'lishini ko'rsatib borishadi.

Segmentasiya "chiziqli ketma-ketlik (yoki qator) sifatidagi nutq oqimini uni tashkil etuvchi unsurlar yoki bo'laklarga bo'linish demakdir".

Albatta, bu talqinda fonetik-prosadik yondashuvning ustunligi ko'rinib turibdi, unda nutqni fonetik bo'laklarga ajratish alohida ta'kidlangan. Ayni paytda bu termin matnni morfologik sathda bo'laklashga nisbatan ham ishlatiladi. Ammo mazkur termin bilan ekspressiv sintaksisga daxldor bo'lgan xodisani nomlash ham

²² Haydarov Sh. "Ko'rsatilgan asar" -avtoreferat, Dissertatsiya, T:-2011

tilshunoslikda turg'unlashgan. Uning mohiyati yaxlit sintaktik strukturani segmentlash, yani segmentlarga ajratishdan iborat. Sodda yoki qo'shma gapni muayyan ekspressiyani yuzaga keltirish maqsadi bilan bo'laklash va bo'laklangan qismlardan birida gapdan tashqariga alohida kommunikativ birlik sifatida chiqarishdan iborat ekspressiv sintaksis usuli segmentasiyadir. Segmentasiya xodisasi dastlab Sh.Balli tomonidan aniqlangan va alohida nazariya sifatida ishlab chiqilgan. Albatta segmentasiya nutqiy xodisa bo'lib turli-tuman kommunikasiya jarayonlarida so'zlovchining u yoki bu badiiy maqsadiga uyg'un tarzda xilma-xil ko'rinishlarga ega bo'ladi.²³

Ilova ham segmentasiyaning ko'rinishlaridan biri sifatida talkin qilish mumkin.

Segmentasiya mantiqan yaxlit sintaktik strukturani bo'laklash va bu bo'lakni ta'kidli pozisiyaga (bu pozisiya gapning oldi ham, oxiri ham bo'lishi mumkin) chiqarishni nazarda tutadi. Ilova esa bo'laklanmaydi.

Ammo tilshunoslikda segmentasiya deganda, asosan, bo'laklangan qismni gapning oldiga chiqarish nazarda tutiladi. M.Yo'ldoshev segmentasiya natijasida atov gaplar yuzaga kelishini, matnda atov gaplarning hamisha poetikk aktuallashtgan bo'lishini, bundan ijodkorlar badiiy maqsadlariga muvofiq tarzda mahorat bilan foydalanishlarini aytadi.

Ta'kidlash lozimki, segmentasiyada ham asosiy gapdan oldingi pozisiyaga chiqarilgan bo'lakning asosiy gapdagi o'rni bilinib turadi, bu bo'lakni asosiy gap tarkibiga "qaytarib tiklash" mumkin, boshqacha aytganda, segmentlangan jumlani desegmentasiyalash imkoniyati ham mavjud. Xullas, segmentasiya va ilova xodisalari ekspressiv sintaksisdagi o'ziga xos usul bo'lib, bir qator umumiyliklarga va farqli jihatlarga ham ega.

Xususan: Segmentasiyada parchalangan bo'lakni tiklash mumkin, bo'lsa, ilova konstruksiyalarini esa tiklab bo'lmaydi.

²³ Haydarov Sh. Avtoreferat, T:-2011

Ilova va paranteza

Ekspressiv sintaksis bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda paranteza termini ostida o'rganilayotgan xodisa ba'zi jihatlari bilan ilovaga o'xshab ketadi. Har ikki xodisada ham badiiy adabiyotda yozuvchining muayyan maqsadi talabiga ko'ra reallashadi va lingvopoetik qimmat kasb etadi. Har ikki xodisada ham aloqador qism asosiy qismdan keyin o'rinishadi. Kiritmalarning ligvistik mohiyati haqida tilshunos I.Toshaliyev o'zining o'zining nomzodlik dissertasiyada quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Kiritmalar grammatik jihatdan shakillangan tayyor gap strukturasiga kiritilib gapdagi grammatik aloqani keyin o'rinishadi ham, tugal intonasiyani ham o'zib qo'yadi, uni muakkablashtiradi. Kiritma ifodalayotgan ma'no ko'pincha asosiy gap mazmuniga nisbatan boshqa yo'nalishda yo'l-yo'lakay kiritilgan ikkinchi darajali izoh, qo'shimcha ma'lumot tarzida bo'ladi. Bu o'g'zaki nutqda asosiy gap mazmunini gapning kiritmadan oldingi qismi bilan keyingi qismining birgalikda tushunilishiga, oz bo'lsa ham xalaqit beradi. Lekin bu fikrga to'lasicha qo'shilish qiyin. Aytish kerakki badiiy matnda bu xodisa fikr anglanishiga "xalaqit" berish emas, aksincha, yozuvchining badiiy niyatini qulay anglash imkoniyatini yaratishi bilan alohida ahamiyatga eagaligi mutaxassislar tomonidan ta'kidlangan "paranteza badiiy asarda muallif va qahramonlar nutqida kelishi mumkin. Aytilmoqchi bo'lgan fikrga aloqador izohlar, qo'shimcha ma'lumotlar qavs ichida berib boriladi. Intonasion, grafik va statik jihatdan mustaqil bo'lgan kiritma konstruksiyalar asarda nutqning to'la anqlanishi uchun zaruriy informasiyalarni berish, tinglovchi yoki kitobxon uchun noaniq bo'lgan o'rirlarga aniqlik kiritish, izohlash, eslatish, his tuyg'ularni ifodalash kabi maqsadlarda qo'llaniladi. Asar qahromoni bilan kitobxon o'rtasida o'ziga xos "Sirdoshlik" illuziyasini yaratadi. Qahramon "aytmasa bo'lmaydigan" gapini qavs ichida berish orqali go'yo kitobxonning qulog'iga pchirlayotganday muxit yaratadi. Bu esa kitobxonning qahramonga nisbatan ishonchini orttiradi va yaqinlashtiradi. Paranteza funksiyasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ayrimlari

kitobxonni “parda ortidan sir” dan ogoh qilishga xoslangan bo‘lsa, ayrimlari yangi informatsiyaga tayyorlash vazfasini bajaradi. Ayrim parantezalarda voqelikka nisbatan muallif yoki qahramonning ijobiy munosabati ifodalangan bo‘lsa ayrimlarida kinoya va kesatq yuklangan bo‘ladi”.²⁴

Darhaqiqat, parantetik konstruksiyalar badiiy asarda qahramonlar nutqini individuallashtirishda muallifning ifoda manerasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etgan D.Jamollidinova kirish va kiritma terminlari o‘rnida paranteza terminini qo‘llash ma’qul, ekanligini ta’qilaydi: “Paranteza” terminida “kiritmalik, kiritish va “qavs(yoki boshqa tinish belgilari) bilan ajratilganlik” ma’nolari aniq ifodalanadi. Zotan, kirishlarning ham, kiritmalarning ham gapdagi pozision-struktural mohiyati shundan iboratki, ularning har ikkisi ham asosiy gap tarikibiga tashqaridan kiritiladi”.²⁵

D.Jamollidinova parantezalarni lingvopoetik qiymati haqida fikr yuritarkan, shunday yozadi: “Ba’zi tadqiqotchilar parantezalarning nutqning ekspressiv “yumshatishi” (“разрыхление”), “nutq tuprog‘ini yumshatib donador qilib”, qulay sharoit yaratishi haqida ko‘p gapiradilar. Albatta, badiiy matnda chinakam badiiyatning poetik intonasiya va poetik ta’kidning tugal ifodalanishida parantezalarning bu xususiyati muhimdir”.²⁶

Paranteza va ilova konstruksiyalari ham bir-biridan farqli hamda o‘xshash jihatlari bilan farqlanadi.

Ilova konstruksiyalarida ilova qism kommunikativ birlik maqomda bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Paranteza ham hamisha kommunikativ birlik bo‘lishi shart emas.

²⁴ Yuldoshev M. “Badiiy matn lingvopoetikasi” Toshkent-2008

²⁵ Jamollidinova D. M. Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik –grammatik ca lingvopoetik xususiyatlari. Filol.fan.nom. diss. “avtoreferat-Toshkent-2009”

²⁶ Jamollidinova D. M. Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik –grammatik ca lingvopoetik xususiyatlari. Filol.fan.nom. diss. “avtoreferat-Toshkent-2009”

Do‘xtir dori yozibberdi. Allayergiyaga qarshi oddiygina dori marmar zinalari yaraqlab to‘rgan aptekaga kirib dori qog‘ozni ko‘rsatdim. Oq xalatio‘ziga xo‘p yarashgan ko‘xlikkina qiz muloyim tabassum xadya etdi.

-Uch ming bir yuz so‘m, amaki,

Rostini aytsam pulim yetmadi. Xijolat bo‘lib chiqib ketdim. Buni qarangki baxtinga ko‘chaning narigi betida ham apteka bor ekan. (Keyinchalik bir narsanangladi. Boshqa joyni bilmadim-ku, bizning ko‘chada dorixonalar non do‘koni ko‘p ekan. Xayronman, ko‘chamizdagilar non o‘rniga ham dori chaynaydimi?) Xullas, aptekaga kirdi. Bunisi anchayin oddiy, torgina ekan. Dori qog‘ozni uzatdim.

Yuqorida keltirgan misolimizda qavs ichidagi so‘zlar parantez birliklar hisoblanadi.

Har ikki xodisa ham gapda kril kontekstda badiiy matnda ekspressiv poetik maqsadga xizmat qiladi. Parantezalar uchun yozuvda qavs, vergul, tire kabi tinish belgilari xoslangan bo‘lsa ilova uchun nuqta, ko‘p nuqta, undov belgisi, so‘roq belgisi kabi final tinish belgilari turg‘unlashgan.

II bob. Ilova konstruksiyalarning semantik-grammatik xususiyatlari

2.1 Gap bo‘laklari shaklidagi ilovalar

Dunyodagi fanlarning eng qadimiylaridan bo‘lmish tilshunoslik necha o‘n asrlardirki, til deyiladigan tilsimningtabiatini, tub mohiyatini tushunish va tushuntirish yo‘lida tinimsiz izlandi. Ayni izlanishlarning hosilasi o‘laroq bu fanda hilma-xil yo‘nalishlar, ilmiy qarashlar, nuqtai nazarlarning yuzaga kelganligidan bugun bexabar bo‘lgan tilshunos yo‘q. Tabbiyki, tilning grammatik qurilishi borasida ham turli qarashlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida ham grammatik hodislar talqinida bir-biridan farqli nuqtai nazarlar kabi, ular ham xodisaning mohiyatini to‘g‘riroq va to‘laroq ochishga jiddiy urinish natijasidir.

Ma’lumki, til qurilishining mohiyatini ochishda, ayni paytda til ta’limida, ayniqsa, gap bo‘laklari muammosi ayricha o‘rin tutadi. Shuning uchun ham gap bo‘laklari nazariyasi tilshunoslarning hamisha diqqat markazida bo‘lib kelgan. Birgina gapning sintaktik qurilishida bosh bo‘laklarning o‘rni masalasiga munosabatini olib ko‘raylik. Turli tilshunoslardagi mavjud sintaktik nazariyalarda bosh bo‘laklarniing gapdagi maqomi aynan bir xil belgilangan emas. Umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, bu masalada asosan, uch nuqtai nazar qayd etish mumkin, ya’ni:

- 1) gapda ega obsolyut hokim, kesim ham unga tobe;
- 2) ega va kesim o‘rtasida muayyan teng huquqlilik mavjud;
- 3) gapning xaqiqiy “xo‘jayin” kesimdir.

Bu uch nuqtai nazarning turli tilshunosliklar tarixida yuzaga kelishi, shakillanishi, turli davrlarda e’tirof etilishi jarayonlariga e’tibor qilinsa. Uch nuqtai nazarning ya’ni “gapning xaqiqiy xo‘jayini kesimdir” tarzidagi qarashning ham va ham yangi ekanligini sezmaslik mumkin emas. Masalan, F.L.Buslayev bundan bir yarim asr burun, yani 1858 yilda e’lon qilingan “Rus tilining tarixiy grammatikasi” asarida kesimsiz hukm ifodalana olmaganligi uchun ham tilda faqat kesimdan

iborat mavjudligini, ammo faqat egadan iborat birona gap yo'qligini alohida ta'kidlangan.²⁷

Og'zaki-so'zlashuvga xos sintaktik to'zilmalarning va sintagmatik bo'linishlarning yozma-kitobiy nutqqa o'tishida avvalo, suhbat (dialog)ga xos tarkiblash usulining ta'siri alohida o'rin tutadi. Ilovali tuzilmalarning aksariyat qismida savol-javob nutqiga xoslik alomati aniq sezilib turadi va ayni shu xususiyati bilan ham ular so'zlovchi shaxsi va uning tabiiy jonli nutqi tasavvur bilan bog'liq qo'shimcha axborot tashiydi: yozma-kitobiy tilga (matnga) nisbatan "begonalik" – o'zgachalik bo'yog'iga ega bo'ladi.

Og'zaki nutq shaklining turli funksional ko'rinishlari ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Og'zaki-so'zlashuv nutqi ko'rinishlari lisoniy muloqotning turli sohalari va bu sohalarda qaror topgan janrlarga mansubligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Og'zaki so'zlashuvga xos xususiyatlarning yozma-kitobiy nutqqa o'tishi adabiy til uslublarining og'zaki shakli ta'sirining faolligidan guvohlik beradi. Ayni mana shu jarayonda og'zaki-so'zlashuv nutqi turli nutq soha (uslub)lariga xoslangan ifoda nusxalarining yuzaga kelishi, uslubiy, sohaviy ixtisoslashuvi yuz beradi.

O'z navbatida yozma kitobiy nutqining og'zaki so'zlashuvga ta'siri ham mana shu jarayonda amalga oshiradi.²⁸

So'zlashuv nutqining harakterli xususiyatlaridan biri gaplarning yetarli darajada shakillanmaganligidir.

Suhbatdoshlarning fiklashishi jarayonida ma'lum bir nutq shaklini tayyorlash, nutqiy omillari jamg'arish uchun vaqt qolmaganligi sababli qanday to'g'ri kelsa, shunday javob qaytaradi. Shuning natijasida so'zlashuv nutqi tarkibidagi gaplar ko'pincha, to'liq shakillanmaydi va ellipsik xarakter kasb etadi. Natijada suhbatdoshlar bir-birini tushunish uchun qanday to'g'ri kelsa, shunday

²⁷ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" T 2011

²⁸ Toshaliyev I. "Hozirgi o'zbek tili, sintaksis, sinaktik va sintagmatik qayta bo'linish. "Parselliyatsiya" Toshkent-2004

gapiraveradilar. Bunday vaqtda, ba'zan nutqda bog'lanish yo'qoladi, uzilish seziladi.²⁹

A.I.Smirniskiy to'g'ri ta'kidlanganidek, "...jonli nutq asosiy xususiyatlaridan biri avval asosiy narsani, tasdiq yo inkorni bildirib bo'lib, boshqalarni undan keyin aytadi, asosiy fikrni bayon qilib bo'lgandan keyin esga kelgan narsani har-xil izohlarni ham shu bilan qo'shib ifodalab beradi"³⁰

Umuman, so'zlashuv nutqida so'zlovchi suhbatdosh uchun eng zarur deb bilgan, ma'lumotlarni, qo'shimcha izohlarni, birdan esga kelib qolgan narsa-xodisalarni keyin aytadi.³¹

U oddiy odam edi. Hammolchilik qilardi. To'rt qiz. Uch o'g'ilni oyoqqa turg'azdi. O'g'illarini uylantirdi. Qizlarni chiqardi. Hammasini uyli-joyli qildi. Ko'z yumayotganida "hammalaringda mingdan ming roziman", dedi...

Qarashsa, kafanligi yo'q ekan ... (O'.Xoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" t-2011 10-b)

Ilova konstruksiyalari gapning bo'laklari sifatida shakllanishiga to'xtalishidan oldin akad. V.V.Vinogradovning "ilova qurimalari" haqidagi fikriga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. "Ilova ba'zi oraliq xalqalarni tushurib qoldirishni, semantik jihatdan yaqin bo'lmagan so'z qatorlarini tasodifan ekspressiv siljitishni nazarda tutadi. Ilovali yoki siljitilgan deb shunday to'zilmalarga aytiladiki, bunday ifodalar odatda bir mazmun chizig'iga joylashmaydi, ammo qo'shilishning assosiyativ zanjirini mazmun munosabati bog'lovchilarning mantiqiy fuksiyasi bilangina belgilanmaydi, balki ishoralardan o'xshatishlardan yoki ashyoviylik ma'nolarini qiyoslashdan kelib chiqadi. Bu yerda bog'lanish to'g'ri chiziqli emas, uzuq-yuluqdir"³² bu uzuq-yuluq bog'lanish qismlarning o'rinlashish tartibi hamda intonasion va to'xtam orqali ifodalanadi.³³

²⁹ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" "Fan", T: 2011

³⁰ Смирнский А.Л. "Синтактик английского языка" М.1957-у

³¹ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" "Fan", T: 2011-y.

³² В.В.Винаградов "Русский язык" –М.А.1974

³³ Toshaliyev I. "Hozirgi o'zbek tili, sintaksis, sinaktik va sintagmatik qayta bo'linish. "Parselliyatsiya" Toshkent-2004

Ilova qurilmalari gapning bo‘laklari sifatida shakillanadi. O‘z navbatida har bir tilning o‘ziga xos bo‘laklar tartibi bo‘lib, biz gap bo‘laklari shaklidagi ilovalarni ko‘rib chiqishimizdan avval, bo‘laklar tatibiga e‘tiboringizni qarasak, mavzuni yanada chuqurroq yoritib oldik deb hisoblaymiz.

Har bir tilning o‘ziga xos bo‘laklar tartibi bo‘lib, boshqa tillarning shunday bo‘laklar tartibidan farq qiladi. Gap bo‘laklari tartibining o‘ziga xos xususiyati har bir tilning tub milliy belgilari, grammatik hamda stilistik qoida va meyorlar bilan chambarchas bog‘liq. Grammatik qonun-qoidalarga bog‘liq holda bir bo‘laklarning o‘ziga xos odatdagi tartib o‘rni bo‘ladi, bu narsa to‘g‘ri tartib sanaladi. To‘g‘ri tartibda gap bo‘laklari quyidagicha joylashadi: Payt holi, o‘rin holi, ega vositali yoki vositasiz to‘ldiruvchi, ravish holi, kesim. Bunday tartibda tobe bo‘lak hokim bo‘lakdan oldin keladi. Adabiy tildagi mana shu odatdagi tartib grammatik yoki mantiqiy-grammatik uslubiy talablarga muvofiq turli xil o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zgarish inversiya orqali yuz beradi. Bir-biriga semantik grammatik intonasion jihatdan bog‘langan hokim, tobe bo‘laklarning o‘rin almashinuvi inversiya sanaladi. Inversiya turli xid omillarga bog‘liq holda yuz beradi. Inversiyani yuzaga keltiruvchi va belgilovchi omillarni turlicha belgilaydilar. Tilshunos olimlar masalan, rus tilshunosligida inversiyani yuzaga keltiruvchi omil sifatida gapning strukturasi, gap bo‘laklarining joylashish o‘rni, asar janri, nutqning xarakteri, so‘zlar orasidagi grammatik munosabatlar, urg‘uning o‘rni kabilar ko‘rsatiladi.³⁴

O‘zbek tilshunosligida gap bo‘laklarining tartibi gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, mantiqiy urg‘unining ta’siri va poetik nutq bilan bog‘liq holda o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ta’kidlanib unda ikki yirik omil-grammatik, semantik-uslubiy omil muhim rol o‘ynashi alohida qayd qilinadi.

Ma’lumki, o‘zbek tilida bo‘laklar tartibi asosan erkindir. Gapda bo‘laklarning o‘rnini o‘zgartirish ularning grammatik holatiga ta’sir qilmaydi, biroq tartib o‘zgarishi gap mazmuniga, ottenkasiga, yo‘nalishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

³⁴ Musayev A. “O‘zbek so‘zlashuv nutqi uslubida gap bo‘laklari tartibi” “Fan”, T: 2011

Tartibi, o'zgartishga uchragan qurilmalar tinglovchini o'ziga jalb qiluvchi emotsional nutqning ta'sirchanligi ta'minlashga xizmat etadi. Ular xilma-xil uslubiy vazifani bajaradi. Hozirgi kunda so'zlashuv nutqida inversiya xodisasi juda keng qo'llanilmoqda. Adabiy til va badiiy adabiyotda uchraydigan inversiya xodisasini K.Musayev quyidagicha izohlaydi. "Shoir, yozuvchi, xalq ashulachilari tayyor shakllarda shtamp shaklidagi qurilmalardan foydalanmaydilar. Ular o'zlari ijod qilish jarayonida yangi-yangi usul, yo'llari topadilar. Shuning uchun badiiy nutqda frazeologizmalar, turli sintaktik qurilmalar, so'z birikmalari uchrab turadi. bu ajablanadigan xol emas, shuningdek, yozuvchi ma'lum maqsad nuqtai nazaridan turli abarotlardan, qurilmalardan foydalanadi".³⁵

Har qanday badiiy asrning muvaqqiyatini ta'minlovchi omillardan eng muhimlari sirasiga badiiy asar tili badiiy so'zni kiritish zarur, chunki badiiy adabiyotning yagona va asosiy vositasi-bu albatta tarzda o'rinlashtirish, qay holda qo'llay bilish yozuvchining o'z salohiyati so'z tanlash mahoratiga bog'liq.

Badiiy asar tili adabiy til tushunchasiga kirsada, umumxalq tilida vujudga kelsada ayni vaqtda o'ziga xos xususiyatiga ham ega. Yozuvchilar persanoj tilini individuallashtirishda u yoki bu qaxramoning gapidagi kelishiklarning qanday qo'llanishi, gapda bo'laklar tartibini qanday tuzata olish, o'z nutqida boshqa tilga xos birliklarni qay darajada ishlatish singari imkoniyatlardan foydalanuvchi mumkin. Lekin bu o'rinda yozuvchi obraz tilini individuallashtirishning bunday turlarini suistemol qilish darajasiga borib yetmaslik kerak, aks xolda adabiy til meyor bo'ziladi. Bu esa badiiylikning zaiflashishiga olib keladi.³⁶

Biz ilova qurilmalari, ularning badiiy matnda qo'llanishini o'rganar ekanmiz ishimizning to'liqroq yoritish maqsadida.O'.Xoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarini manba qilib oldik.

³⁵ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" "Fan", T: 2011

³⁶ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" "Fan", T: 2011

Ilova qurilmalar gapning bo‘laklari sifatida shakillanadi, chunki bunday gap bo‘laklari bilan ifodalangan fikr aytish dastlab hayolga kelmagan bo‘ladi. Nutq jarayonida ularni qo‘shimcha aytish ehtiyoji tug‘iladi. Ana shu ehtiyoj natijasida bosh va ikkinchi darajali bo‘lak vazifasidagi so‘z va birikmalar keltiradi.

Gap bo‘laklari shaklidagi ilovalar. Ma’lumki, ayrim lingvistik adabiyotlarda gapning bosh bo‘laklari ilova qurilmasi sifatida kelishi tan olinmaydi. Bunga asosiy sabab aytilgan qo‘shimcha fikrni ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelgan ilova qurilma bajaradi deb ko‘rsatiladi. Chunki ega va kesim ilova qurilma sifatida kelganda uyushiq bo‘lak tarzida bo‘ladi. Lekin ilova strukturalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularda bosh bo‘laklar ham ilova qurilmasi sifatida shakillanganda, asosiy gapning tarkibida ega va kesim bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin.

“Otchopar” bozorida qadrdon do‘stimni uchratib qoldim. Matematik.... olim sigaret sotib o‘tirgan ekan...Meni ko‘rib ko‘zini yashirdi. Men ham burilib ketdim ... ikkalamiz bir-birimizdan nega uyalganimzni bilmayman. Negadir ... yig‘lagim keldi...40(O‘.Xoshimov.30-b).

Bu misolda asosiy gap “Matematik” va “olim” bo‘lib, bular ilova qurilmalar hisoblanib asosiy gapda qo‘shimcha izoh berilgandir.

Ilova qurilmasi sifatida shakillanuvchi bosh bo‘laklardan biri asosiy gap tarkibida kelmaydi va u ilova sifatida qo‘llanadi. Ular xususiyatini o‘rganish katta qiziqish tug‘diradi.

Materiallar shuni ko‘rsatadiki, ega ilova sifatida keismga nisbatan kam qo‘llanadi. Bu narsa kontamansiya xodisasi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Buning natijasida eganing struktural tipi va shakli o‘zgarishi mumkin.³⁷

Kontamantiya xodisasi, ayniqsa shaxsi noma’lum gaplarda aniq ko‘rinadi.

³⁷ Musayev A. “O‘zbek so‘zlashuv nutqi uslubida gap bo‘laklari tartibi” “Fan”, T: 2011

Asosiy ifodalovchi gap qanday va forma va shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, ega sifatida shakllangan ilovali qurilma bo'lsa, u gap mazmunini to'ldirishga xizmat qiladi:

- *Menga iqarang, mullo!-dedim mulzam qotib,-Bundan chiqdi, otangiz elektr toki, onangiz-inkubator eakn-da! Unda siz tuxum bo'lasizmi? Albatta, hammaniyam xudo yaratgan. Gullariyam, tikanlariyam, odamniyam, eshakniyam... Olloh sizni eshak, odam qilib yaratganiga shukrona qilmaysizmi? Tangri sizga aql-zakovat til-zabon berganiga xursand bo'lmaysizmi? 43. (O'.X.128-b)*

Armani:

-Sizga nima kerak, azizim? "qoravul Petrosyam" deysizmi? Vax-vax-vax! U qoravul emas, akademik! Donishmand odam! Yuring uyini ko'rsataman. Yaqinda ikki qavatli uy soldi azamat!

O'zbek:

- *Nima? Kim deysiz? "akademik Alijonov?" Hyech qanaqa akademik emas u! Qoravulchalik savodi yo'q! Etikdozchalik ilmi yo'q, G'irt axmoq odam. Poraxor! O'rikzorda dang'illama imorat soliyapti shuncha pulni qayerdan oliyapti? Umuman ... men hech qanaqa Alijanip palijanipni tanimayman! 44 (O'.X142-b)*

Kesimning ilova sifatida kelishi egaga nisbatan ko'proqdir. Kesim ilova bo'lib keluvchi asosiy gapning shakli va tuzilishi turli-tumandir.³⁸

"Yuk ko'targan odam yuzaga chiqadi", deyдилar... chiqadi. Albatta chiqadi! Faqat yuk ko'targanni suyab yuboradigan qo'l bo'lsa bas.! 46. (O'.X.15b)

-Mumkin emas!-dedi tarjimon mexmonning gapini so'zma-so'z ag'darib-Janob shaftolining egasiga haq to'lamadilar. Shuncha mevani so'roqsiz olib chiqdilar. Mumkinmas. 47. (O'.X.25b)

-Ko'ng'iroq topishi kerak! Mushuk qayeriga borsa, qo'ng'iroq jiringlab turishi kerak! Biz qo'ng'iroqni eshitib, qochib ketimiz kerak! Oxiri, mushuk

³⁸ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" "Fan", T: 2011

ochidan o'lishi kerak! Shu gapga qarshi chiqqan sichqonlarning dumini kesish kerak! 48. (O'.X.133-134-b)

Ikkinchi darajali bo'lak vazifasidagi ilova qurilmalari. So'zlashuv nutqida ikkinchi darajali bo'laklarining ilova konstruksiyasida kelishi adabiy tildagi kabidir. Biroq ikkinchi darajali bo'lak vazifasidagi ilovalar qurilmalarning tashkil topishi va shakllanishida vazifa bo'lgan grammatik ko'rsatgichlar har xildir.

1. Ilova konstruksiyalari xol sifatida shakllanadi. O'zbek tilidagi faktik materialarning ko'rsatishicha xol sifatida shakllangan ilova qurilmalar ko'pchilikni tashkil etadi. Xol sifatida shakllangan qurilmalar asosiy etakchi gap mazmunga xolat, o'rin, payt, maqsad, sabab kabi ma'nolarni tashuvchi qo'shimcha tushunchalarini ifodalaydi. Ilova qilinuvchi xollar marqologik nuqtai nazardan turlicha ifodalanishi mumkin. Xol sifatida keluvchi ilova qurilmalari quyidagicha bo'ladi:

A) o'rin xoli sifatida keladi:³⁹

... Nigorochnka-Samarqandda. Toyest, Nigorochnka emas, Nargizochka-Qo'qonda (O'.X .52b)

Itok, to'rt bo'lam bor. Maratik-Nukusda internatda. . (O'.X .53b)

B) payt xoli sifatida keladi.

Hayotimda ko'p dasxat yozishga to'g'ri kelgan. Kitoblar, albomlar, suratlar ... Faqat bir gal dasxat yozish mushqo'l ish ekanligini bilganman. (O'.X.43b)

Yuqorida keltirilgan misollar xol bo'lib kelgan bo'laklar asosiy gapga ilova qilingan. Bu gaplar tarkibida o'sha ma'nodagi boshqa xol bo'laklar ishtirok etmagan. Ilova qilingan xol bo'laklari yuqoridagi kabi xolatlarda qo'shimcha vazifasini o'taydi. Lekin tarkibidagi o'rin va payt xoli bo'lgan gaplardan keyin xuddi shu mazmundagi xol bo'laklar ilova qilishi mumkin. Bunda ilova qilingan xol bo'laklar o'rin va paytga aniqlik kiritadi, yani ular gap tarkibidagi xol mazmunini konkretlashtiradi.

2. Ilova qurilmalar to'ldiruvchi sifatida shakllanadi. To'ldiruvchi sifatida shakllangan ilova konstruksiyalari xol ilova qurilmalariga nisbatan ka uchraydi.

³⁹ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" "Fan", T: 2011

To'ldiruvchi ilova qurilmalari asosiy gap tarkibida aytilmagan obektni alohida ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi.⁴⁰

Ko'ngli –paxtasidek oppoq. Fe'li-paxtasidek yumshoq. Mehri-paxtasidek qaynoq... Faqatgina bir aybi bor: “paxta qo'yish” ni bilmaydi! (O'.X.57-b)

Dilorom besh yashar.

-Jivachkangdan Shoxruhga ham berdingmi, Dilish?

-Berdim.

-Nechtasini?

- Hammasini. Qog'ozini? (O'.X.218-b)

3. Ilova qurilmalari aniqlovchi sifatida shakillanadi. Aniqlovchi sifatida shakillangan ilova qurilmalari to'ldiruvchi sifatidagi ilova qurilmalardan ham ko'proq qo'llanadi. Bu shu bilan izohlash lozimki, aniqlovchi va aniqlanmish bir-biri bilan mustaxkam aloqadordir. Shuning uchun aniqlovchini asosiy gapning ichida keltirishga harakat qiladilar. Ba'zan aniqlanmish asosiy gap tarkibida keltirilib, aniqlovchi aytilmaydi. So'zlovchi tinglovchiga aytayotgan fikridagi belgi-xususiyatini bo'rttirib, ko'rsatmoqchi bo'lsa, o'sha belgini ko'rsatuvchi aniqlovchini ilova qiladi.⁴¹

Quyosh botishi bilan qorog'ilik tushadi. Olsidan-dara tomondan soy shovullaydi. Qayerdadir xaqqush tinimsiz nola chekadi. Yeyildi. Ichildi. Xushchaqchaq suhbatlar bo'ldi... (O'.X.183-183)

Sovchi bo'lib bordi.

- qulchilikka keldik,-dedi extirom bilan. Yana bordi.

- qulchilikka keldik, aylanay! Tag'in bordi.

- Qulchilikka keldik, o'rgilay. Noumid qilmang! Noumid qilmadilar.

Chiroyli to'y bo'ldi...

.... Keyin..kelinini quldek xo'rlay boshladi... (O'.X.164-b)

⁴⁰ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" "Fan", T: 2011

⁴¹ Musayev A. "O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi" "Fan", T: 2011

2.2 Gap shaklidagi ilovalar

Gap nutqning shakllangan intonasion bo'lgan yaxlit asosiy birlikdir. Gapdagi so'zlar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bu so'zlarning har biri gap tarkibida ma'lum bir grammatik vazifa bajaradi.

Ma'lumki, ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning semantik va grammatik jihatdan birikishidan qo'shma gap xosil bo'ladi. Bundan qo'shma gap komponentlari intonasion jihatdan ham o'zaro birikkan, yaxlitlangan bo'ladi. Qo'shma gaplar strukturasiga ko'ra va fikr ifodalash tarziga ko'ra, sodda gaplardan keskin farq qiladi. Shuningdek, ilova xodisasining voqelanishi ham qo'shma gapda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ilovaga xos umumiy qonuniyat qo'shma gap strukturasida ham davom etadi.⁴²

Ilova konstruksiyalari gap shaklida ham keladi. Ilova qilingan gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin.:

1. Darak mazmunli ilova qilingan gaplar. Bunday ilovali gaplar qo'shimcha xabar ma'nosini ifodalab keladi va oldingi gap bilan qo'shma gapning sostavi kabi bir butunlikni tashkil qiladi. 60.

Bahorda dehqonning yumushi ko'payadi. Yerga omoch soladi. Ko'chat qadaydi. Nihol o'tkazadi Sug'oradi, ozuqa beradi... vaqtida shudgor qilmasa, ekani unmaydi. Vaqtida sug'ormasa ko'chat qurib qoladi....(O'.X.163b)

Bir kunlari o'tib turuvchi. Birovdan oldin, birovdan keyin deganidek ... qora qozon qaynab turuvdi...

...orzuli dunyo ekan. Xotin dugonalari bilan gap yedi. Unisini ko'rdi, bunisini ko'rdi...O'kindi....(O'.X.149b)

2. So'roq mazmunli ilova qilingan gaplar. Bu xil gaplar asosiy gaplar mazmuniga kerak bo'lgan qismlarni oydinlashtirish maqsadida berilgan so'roqdan

⁴² Haydarov Sh "Badiiy matnda parselliyativ konstruksiyalarning qo'llanilishi" avtoreferat T:-2011

tuziladi. Bu so‘roq gapda ko‘pincha so‘zlovchining shubhasi, gumoni o‘z ifodasini topadi.⁴³

Nima? Yozmaysiz! Toyest, kak yozmaysiz? Nima? Nima dedingiz? Yana bir qaytaring! “Men inkubator tuzatadigan usta emasman”; dedingizmi? Kim inkubator? Nega ayol kishini xaqorat qilasiz? Nima xaqqingiz bor. Naxal! Pisaka neschastniy. Ma, zajigalkang bosh-sh-shingdan qolsin! (O‘.X.300-b)

3. Undov mazmunli ilova qilingan gaplar. Bunday gaplar mazmunidan buyruq va emosional harakterga ega bo‘ladi. Undov mazmunli ilovalarda asosiy gapdagi biror so‘z ba‘zan takoro kelishi mumkin:⁴⁴

-Nima? “Jinni?” Kim jinni?! – er avval stolni mushtladi. Keyin qo‘shqo‘llab sochini yula boshladi.- Xayajonalnayotganim yo‘q! Do-o-od!

Voydo-o-d Xayajonalnayotganim yo‘-o‘-o‘q

-Cho‘rt poberi! – dedi qo‘l siltab.- men toyga pomildori emas, tariq olib kelganman! Bo‘ldimi! Qutildimmi endi?! (O‘.X.325-b)

Yakin kelma, jon ukam , yaqin kelma! Joningdan umiding bo‘lsa, yaqin kelma! Bola-chaqang bo‘lsa kerak, yaqin kelma! (O‘.X.312-b)

-Xabaring bormi, bugun falon gazetada klassik xikoya chiqadi! Darrov o‘qi! (O‘.X.309-b)

Mumkinmi, Good morning! Salom! Ruxsatingiz bilan o‘zimni preastavit etsam... Jonetta Kabulovna Xolsayeva! (O‘.X. 296-b)

Ilova qurilmalar fikrning ta’sirchanligi, emosional-ekspressivligi, nutqning izchilligi, to‘liqligini ta’minlash kabi vazifalarni bajaradi.

⁴³ Musayev A. “O‘zbek so‘zlashuv nutqi uslubida gap bo‘laklari tartibi” “Fan”, T: 2011

⁴⁴ Musayev A. “O‘zbek so‘zlashuv nutqi uslubida gap bo‘laklari tartibi” “Fan”, T: 2011

III bob. Ishning amaliyotga tabiqi

3.1 Darsliklarda ilovalarning berilishi

“Yozuvchini soʻz sanʼatkori deydilar. Koʻpgina kitoblarimiz ana shu goʻzal tilimizning ohanglaridan, serjilo boʻyoqlaridan mahrum boʻlib qolmoqda. Negadir adabiyotshunoslarimiz yozuvchi tiliga unchalik eʼtibor bermaydilar.”⁴⁵ Atoqli soʻz sanʼatkori Said Axmadning ushbu soʻzlariga eʼtibor karatadigan boʻlsak, chindan ham, adabiyotshunoslikka oid koʻplab ishlarda, X.Donyorov va B.Yoʻldoshevlar juda toʻgʻri taʼkidlaganlaridek, “badiy asar tili yul-yulaky yoki umuman tilga olinadi. Bunday asrlarda badiy nutq toʻgʻrisida “obrazli”, “shirali”, “jozibali” singari shablon yepitetlar yordamida fikr yuritiladi”.⁴⁶ Bunday quruq deklaratsiya shaklidagi baholar badiy asar tiliday murakkab sanʼtning magzini chakishga, bu saʼnat yaratuvchisining til bobidagi mahoratining mohiyatini ochishga yordam bermaydi. Agar badiy asar tili haqiqatdan ham obrazli, shirali, jozibali boʻlsa bu goʻzal va asar uchun favqulotda muhim boʻlgan sifatlar qay tarzda yuzaga kelgan, ularning lisoniy asarlari nimalardan iborat botiniy maʼno-mazmun qirralarining zohir boʻlishida qanday til birliklari va ayni paytda bu birliklar oʻrtasidagi qanday munosabatlar ishtirok yetgan, yaxlit asardagi asosiy fikr – mavzu bilan uni ifodalovchi til birliklari oʻrtasidagi mazmuniy-ruhiy uygunlik qanday nomoyon boʻlgan kabi zaruriy masalalar tadqiqotchining asosiy diqqat markazida boʻlmogʻi shart. Buning uchun esa tadqiqotchi ham tilning, ham adabiyotning ming yillar davomida shakllangan, takomilga yetgan, mantiq va badiiyat bila toʻyingan qonuniyatlarni toʻla bilmogʻi xal qiluvchi omildir.

Badiy adabiyot tilini oʻrganishda tilshunos kurpani fakat birgina oʻzining haqi deb, oʻz tomoniga tortsa, adabiyotshunos oʻz tomoniga tortsa,

⁴⁵ Iktibos shu kitobdan olindi: Donyorov X, Yoʻldoshev B. Adabiy tili va badiiy stil –Toshkent fan.1988.86 b.

⁴⁶ Donyorov X, Yoʻldoshev B. Koʻrsatilgan asar. 88 b.

anikki, ijobiy natijaga erishmok mushqo‘l. Chunki ko‘rpa, kattadir- kichikdir, qalindir-yupqadir, bitta. Shu bita kurpani baham kurmoq tilshunos va adabiyotshunosning filalogik faoliyatidagi qismatidir. Mashhur rus filoligi R.A..Budagov “Badiy asar tili ” nomli maqolasida badiiy asarda til yozuvchining kitobxonga faqat g‘oyaviy emas, balki estetik ta’sir yetish istagi bilan maxsus qo‘shimcha vazifani olib, favqo‘lotda qudratga ega bo‘lishini alohida ta’kidlaydi.⁴⁷ Yirik tilshunos G.Abduraxmonov adabiy asar tilini o‘rganish haqidagi maqolasida badiiy asar tilini tadqiq etishning o‘ziga xos yo‘llarini belgilab bergan. Olim alohida ta’kidlaydiki, ko‘p hollarda asar tili haqidagi ishlarda “tanqidchilar yoki o‘qituvchilar biror asarni tahlil qilar ekanlar, asardagi qaxramonlarni salbiy va ijobiy obrazlarga bo‘lib, ularning har birini xarakterlash bilan cheklanadilar, asarning tili, bu tilning mazmunga munosabati, vokea-xodisalarni tasvirlashda qanday badiiy til vositalaridan foydalanish, yozuvchining bu sohadagi yetuk va kamchiliklari e’tibordan chetda qoldi (yoki anna shunday tahlil yakunida asarning tili haqida hech kanday ahamiyati bo‘lmagan bir-ikki ogiz so‘z aytish bilan kifoyalanadilar)”.⁴⁸ Badiiy asar tilini bu tarzda tekshirish to‘g‘ri emasligini muallif aniq dalillar bilan ochib bergan, badiiy tilni o‘rganishda e’tibor qilinishi shart bo‘lgan jihatlarni birma-bir ko‘rsatgan. Makoladagi quyidagi haqqoniy fikrlar ham diqqatga sazovor: “Shuni esda tutish kerakki, asarning tili asarning mazmunini tahlil qilgandan so‘ng emas, balki uning mazmun tahlili bilan barobar olib borilishi zarur...Yozuvchi umumxalq tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, adabiy tilni boyitadi, mukammallashtiradi. Yozuvchining mazkur imkoniyatlardan qanday foydalanganini o‘rganish asosiy vazifalardan biridir ”.

Ma’lumki, hozirga qadar badiiy asar tilini o‘rganishning turli usullari mavjud. Bu usullarga muvofiq, ayrim tadqiqotchilar asar tilini tilshunoslik, boshqalar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishni ma’qul deb

⁴⁷ Будагов Р.А.Филология и культура.-М.: МГУ, 1980. С.278.

⁴⁸ Abdurahmonov G. Adabiy asar tilini o‘rganish haqida // O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi masalalari.- Toshkent,Fan,1966.4-11 b.

hisoblashadi. Akademik V.V.Vinogradov boshchiligida bir guruh olimlar badiiy asar tilini o'rganish masalasiga alohida bir soha sifatida qarashni taklif qilishgan. Biroq bu boradagi munozaralarda xali biror bir yakdil fikrga kelingan emas; badiiy asar tilini o'rganishning me'yorlari ishlab chikilmagan. Bizningcha, badiiy til insoniyat aloqa tizimi, estetik dunyoqarashining alohida ko'rinishi sifatida ayricha o'rganilishi zarur.

Bu borada yangi davr tilshunosligida til va nutq xodisalarini farqlash haqidagi nazariyalarni ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Bu nazariyalarga ko'ra, til jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar, ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yigindisidir.

Badiiy asar tilining adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi haqida yana shuni aytish mumkinki, til va nutqqa alohida-alohida xodisa sifatida yondoshilgani bois, shartli ravishda badiiy asarning ma'no (ichki, goya) va mavzu xususiyatlarini germenevtik **til xodisasi** sifatida, uning epos, lirika va drama shaklida mavjudligini **nutq xodisasi** sifatida baholash mumkin. Bunda badiiy asar tili alohida xodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, har bir xalqning milliy mentaliteti uning madaniyati, madaniy saviyasi bilan bog'liq. Badiiy adabiyot madaniyatning bir turi sifatida uning namoyon bo'lish usullaridan biridir. Zero, har qanday madaniyat tilda namoyon bo'ladi, tilda o'zining moddiy qobig'ini topadi, reallashadi. Badiiy til madaniyat tashuvchi vosita sifatida milliy madaniyat mentalitet bilan bog'lik.

Badiiy asar – individual ijod mevasidir, binobarin, ijodkor o'z lug'aviy boyligi doirasida asar tilini bezash, shakllantirish uchun yangi lingvopoetik vositalar yaratish mobaynida original badiiy – tasviriy vositalarga murojaat qiladi, tilning lug'aviy imkoniyatlaridan foydalanadi.

Biz ko'pincha badiiy asarning qiymatini uning badiiy xususiyatlari bilan bog'laymiz. Bu to'g'ri, ammo masalaning bir tomoni, xolos, chunki aynan

badiiy asar mavzusini belgilashda undagi lingvistik xususiyatlar ham muhim rol' o'ynaydi. Xususan, mavzuga mos sharoit yaratish asnosida muallif uni shakllantiruvchi so'zlarni qo'llash orqali mavzu maydonini yaratadi. G'oyaning mazmuni inson ongida mavjudligi bois u aksar xollarda tushuncha ko'rinishida namoyon bo'ladi. Uning shakli esa, yuqoridagi ikki turni kerakli til vositalari bilan taminlashga xizmat qiladi.

Badiiy asar matni tahlili jarayonida badiiy adabiyotning eng muhim atributlaridan biri bo'lgan uning badiiyligi, aniqrog'i, badiiylilikning inson tafakkuridagi falsafiy-estetik fantaziyaga munosabatini ko'zda tutishi lozim. Bu o'rinda badiiylilik "o'ziga xosligi", "istisnoligi", "saykallanganligi", "me'yorlanganligi" bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar badiiy asarning shakli va g'oyasi orqali namoyon bo'ladi. Shakl va g'oya mantiqiy izchillikda yuzaga chiqadi.

Insonning o'zligini anglashi, o'z mohiyatiga yetishi uning dunyoga, hayotga, tabiatga, kishilarga mehr-muhabbat asosida o'z olamini yaratib olishida ko'rinadi. Yaratganda ham haqiqat, ezgulik, yaxshilik va go'zallik qonunlariga muvofiq bo'lgan olamni yaratishida namoyon bo'ladi. Busiz inson ma'naviy yetuk tarzda shakllana olmaydi. Mana shu olamning bunyod etilishida adabiy mashg'ulotlarning ona tili va adabiyot muallimining o'rni beqiyos. O'z mohiyatini anglab yetgan va o'z vatani, uning taraqqiyoti, millat farovonligi uchun ma'sul insonni o'qituvchi tarbiyalaydi. U hayotni, odamlarni, dunyoni sevuvchi ijodkor insonni shakllantirish jarayonini boshqaradi. Jarayon mahorat bilan boshqarilsa, insonning o'zligini anglashi uchun negiz yaratiladi, beriladigan bilimlar bu yo'lda asosiy vosita hisoblanadi. Agar shunday bo'lmasa, ta'limdan kutilgan maqsad o'zining asl qiymatini yo'qotishi mumkin.

O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" risolasida yozgan: "... Biz yurtimizda erkin, demokratik jamiyat poydevorini barpo etish yo'lida yangicha ruhda o'sib-o'lgayayotgan navqiron avlodni voyaga yetkazmoqdamiz... O'zbek tili,

adbiyoti bu borada qanday rol o'ynashi kerak? Ona tilimizni, badiiy tafakkurimizni rivojlantirish orqali xalq ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida yana qanday ishlarni qilishimiz zarur?"⁴⁹ – degan fikrlari adabiyot o'qituvchilari hamda soha mutaxassislarini bu masalaga jiddiy e'tibor berishga da'vat etadi. Shuningdek, risloadagi: "XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufklar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchiniing bashariyatning erntangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb yetmoqda", - deya ijodkorlarga qarata qilgan murojaati ham bevosta amalyotchi o'qituvchilarga dahldordir. Zero, ijodkor yaratgan asarni o'rgatish, adabiyotga mehr uyg'otish, badiiy asar o'qishga qiziqtirish, o'quvchi ruhiyatini tarbiyolash, ma'naviyatini yuksaltirish kabi yumushlar asosan maktabda amalga oshiriladi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshrish markazida to'rgan o'qituvchi davlatning, millatning kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdek ulug' vazifa topshirilgan eng aziz, eng e'zozli insondir. O'z oldiga yoshlar ma'naviyatini shakillantirishdek maqsadni qo'ygan o'qituvchi shaxsi adadiy ta'limda muhim o'rin tutadi. Zero, ma'naviyat-faqat bilm degani emas, uni oliy ma'lumotga ega bo'lgan har qanday mutaxassis yoshlarda tarkib toptira olmaydi. Buning uchun o'qituvchining o'ziga yuqori darajadagi kasbiy mahorat bilan birgalikda ma'naviy fazilatlar ham bo'lishi shart. Ma'naviy sifatlar adabiy ta'lim jarayonida shaxsdan shaxsga, qalbdan qalbga bevosita ko'chadigan eng kuchli fazilatlaridir.

O'z o'quvchilarini yuqori insoniy fazilatlar sohibi yetib tarbiyalashni maksad iklgan o'qituvchi, avvalo, bolalarni o'z faniga qiziqtirishi, kitobga oshno yetishi joiz. Chunki kitob shunday kuchki, unga oshno bo'lgan kattani

⁴⁹Islom Karimov. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T.: O'zbekiston, 2009.

ham, kichikni ham o'ziga sezdirmagan xolda insoniylikning baland sarhadlari sari etaklaydi. Biroq kitobga, mutolaaga qiziqtirish faqat buyurish, topshiriq berish bilan amalga oshib qoladigan vazifa emas. Buning uchun o'qituvchi bor mahoratini ishga solishga to'g'ri keladi.

O'quvchilarni fanga, badiiy asar mutolaasiga va uni tahlil qilishga qiziqtirishda, mashg'ulotlarni tashkil etishda har bir muallim o'z tajribasidan kelib chiqib yondashadi, albatta. Mazkur maqsadni amalga oshirishda quyidagi jihatlarga asoslanilsa, ta'lim-tarbiyadan kutilgan natijaga osonroq erishiladi:

- avvalo, o'qituvchi o'z fani hamda bolalarni sevishi va ular bilan to'g'ri munosabat o'rnatishi;

- shaxsiy namuna (tashqi ko'rinish, muomala odobi, eng yaxshi insoniy fazilatlari va x.k) ko'rsatishi;

- dars mashg'ulotlarini hilma-xil, rang-barang, an'anaviy va noan'anaviy tarzda tashkil etishi (ilgor pedagogik texnologiyalar, media-darslar, muzey darslari, ijodkorlarning uy-muzeylarida mashg'ulot o'tkazishi va h.k);

- o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchilari (ularga tayyor bilimlar berish yaxshi natija bermaydi) ga aylantira olishi (bolalarga mustaqil fikr bildirish, rad etish, isbot qilish, o'z fikrini himoya qilish imkonini yaratish);

- o'rganishga tavsiya etilgan asarlarni, mustaqil hamda sinfdan tashqari o'qish va tahlil qilishga berilgan asarlarni o'qish, chuqur tahlil hamda muhokama qilish, ular yuzasidan baxs- munozara, debatlar uyushtira olishi; va h.k

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, yuqorida keltirib o'tilgan barcha mulohazalarni umumlashtiradigan bo'lsak, badiiy matnni lingvopoetik tahlili masalasi tilshunoslar tomonidan to'liq o'rganilmagandir.

Filologik ta'limda talabalarda badiiy matnning lisoniy-poetik xususiyatlarini idrok etish malakalarini shakllantirish, badiiy asarning lingvopoetik tahlili va talqini bo'yicha qobiliyatlarini o'stirish maqsadida badiiy matn tahlili bilan bog'lik alohida kurs kiritilgan. Bu o'quv kursi

bo'yicha o'zbek tilida turli nomlarda bo'lsa-da, bir qator qo'llanmalar nashr etilgan. Shunga ko'ra badiiy matnni tahlil va talqin qila olish malakasi insonning umummadaniy saviyasi, ma'naviy-marifiy balog'ati, dunyoni anglash salohiyati, hissiy-estetik idrokining taraqqiyoti uchun muhim ekanligini isbotlab o'tishning xojati bo'lmasa kerak. Shuning uchun ham badiiy matn talqini tarbiyasi faqat filologik ta'limdagina emas, balki umuman ta'limda ham alohida o'rin tutishi lozimligi dunyo ta'lim tizimida e'tirof etilganiga ancha bo'lgan. Shunday ekan, badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish kursini faqatgina oliy ta'limdagi talabalargagina emas, litsey, kollej va hattoki maktab o'quvchilariga ham o'tish, o'quvchilarni badiiy asar va asarning til xususiyatlariga bo'lgan qiziqishni yanada oshirada, hamda o'quvchilarda "menga buni bilish zarur va men buni bilishga, uni hayotda qo'llashga qodirman" degan ichki ishonch va intilish paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Bizning ushbu bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi "ilova konstruksiyalari va ularning badiiy matnda qo'llanishiga" bag'ishlangan ekan, yuqoridagi fikrlarimizni dalillash maqsadida quyida "ilova qurilmalari va ularning maktab dasturlarida o'tishni", turli-xil usullarini ko'rib chiqishni oldimizga maqsad qilgan holda, quyidagi dars ishlanmalarni keltirib o'tamiz va buni maktab o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'dirmasligini asoslab beramiz.

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

T\r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan vaqt	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metod lari va shakllari	Ta'lim vositalari
1	Tashkiliy qism	5 min	O'quvchilar davomatini aniqlash, o'tgan dars mavzusini so'rash va baholash, o'tgan darsni	Noananaviy	Tarkatma materiallar

			mustahkamlash va yangi mavzuga bog'lash		
2	Dolzarplashtirish (mativasiya)	5 min	Adibning "Urushning so'ngi kurboni" hikoyasi-ning til xususiyatlariga e'tibor qaratish		Kitoblar
3	Yangi tushuncha va xatti harakat usullarini shakillantirish	20 min	Yangi mavzuni bayon qilish, asardan parcha o'qib, o'sha parchalardan ilovani tushuntirib berish, o'quvchilar bilan ishlash		Slaydlar
4	Mustahkamlash yoki qo'llash	10min	Mavzu yuzasidan tarqatma material asosida bahsmunozara usulidan foydalanish		Savollar varag'i doska, bo'r
5	Yakuniy qism	5 min	Guruhlarning to'plagan ballari e'lon qilinadi va g'olib guruhlar rag'batlantriladi. O'quvchilar baholanadi. Uyga vazifa beriladi.		Darslik

O'qituvchi:

Hamrayeva F.

Dars rejasi

Darsning mavzusi: Ilova konstruksyalari haqida (O‘.Hoshimovning “Urushning so‘ngi qurboni ” hikoyasi)

Dars maksadi.

a) Ta’limiy maqsad: asarning til xususiyatlariga e’tibor berish va tahlilni tushutirib berish.

b) Tarbiyaviy maqsad: badiiy asar o‘qiyotganda yozuvchining maqsadini anglagan holda o‘qish

v) Rivojlantiruvchi maqsad: asarni o‘qigandan keyin o‘quvchi yozuvchining sintaktik vositalardan qay darajada foydalanganiga e’tibor berib borish.

Dars turi: Aralash.

Dars usuli: Noan’anaviy.

Darsninig jihozlanishi: Darslik, tanlangan asarlar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

I Tashkiliy qism:

- salomlashish
- o‘quvchilar davomatini aniqlash
- dars xonasinig tozaligi

II Uyga vazifani so‘rash.

III Yangi mavzu bayoni.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov shaxsi va “Dunyoning ishlari” asaridan olingan parchalar bilan o‘quvchilar 5-sinfda tanishishgan. Asarning shirali tili, jozibali ifodasi va ona timsolining samimiy tasviri tarbiyalanuvchilar ruhiyatida iz qoldirmasligi mumkin emas. Darsning boshida o‘qituvchi o‘quvchilarga buni eslatsa, adib va uning asari haqida bilganlarini gapirib berishni so‘rasa, o‘quvchilar bir-birlariga so‘z bermay o‘z fikrini o‘rtaga tashlashlari, ruhan bugungi hikoyadan ham o‘shanday lazzatni tuyishga tashnalikni his qilishlari tabiiy. Buni ular ko‘pda ilg‘amasalarda, o‘qituvchi o‘z “hamkor” larining shu holatga tushganini payqagan zahoti pedagogik “xujum” ni boshlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hikoyada muallif hayotdagi moddiy qiyinchilik, qashshoqlik inson ma’naviyatini sinovdan o‘tkazuvchi bir vosita ekanini oddiy O‘zbek oilasi misolida, o‘ta samimiy tarzda namoyish etib bilgan. Asarni o‘rganishga kirishishdan oldin o‘qituvchi uning dasturdagi talqini bilan tanishishi, asarga qanday yondashish lozimligini qat’iylatirib olish zarur.

Bu talqin: “Asarda, adib hikoyadagi voqealarni, obrazlarni ekspressiv-estetikligini oshirish maqsadida, qaysi o‘rinlarda ilova konstruksiyalarda foydalanganligi va bu qismlarning asar mazmuniga ta’sir qilish darajasi aks etishi kerak”.

Hikoyaning darslikdagi to‘liq matnini o‘qib chiqish uchun 25-26 daqiqa kerak bo‘ladi. Mazkur hikoyani o‘rganish uchun dasturda belgilangan ikki soatning birinchisi adib shaxsiga doir darslikdagi materiallarga qo‘shimcha ravishda ma’lumotlar berish va hikoya matni bilan o‘quvchilarni tanishtirishga bag‘ishlanadi.

Hikoyani lingvopoetik tahlil qilishdan avval, o‘qituvchi o‘quvchilarga “ilova konstruksiyalari” haqida nazariy ma’lumot berishi lozim. “Ifoda jarayonida fikr nisbiy tugallangan darajada aytilgan bo‘ladi. Shundan keyin unga oldindan o‘ylanmagan nimanidir qo‘shib bayon etish so‘zlovchi nazarida zarur tuyiladi. Ana shu qo‘shimcha izoh tugallangan pauzadan so‘ng bayon etiladi. Oldindan

o‘ylanmagan, biroq qo‘shimcha ravishda bayon etilmagan. shu “keyingi ifoda ilova konstruksiya hisoblanadi”. Masalan O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan parchaga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, adib qaysi o‘rinda ilova qurilmalaridan foydalanganligini va bu hodisalarning asar ekspressivligiga qanchalik ta’sir ko‘rsatganini ko‘rishimiz mumkin.

“Otchopar” bozorida qadrdon do‘stimni uchratib qoldim. Matematik... Olim... Sigaret sotib o‘tirgan ekan... Meni ko‘rib ko‘zini yashirdi.

Men ham burilib ketdim... Ikkalamiz bir-birimizdan nega uyalganimizni bilmayman. (O‘.Hoshimov 306)

Bu misolda ilovalar “Matematik” hamda “olim” so‘zlarni hisoblanib, bu ilova qurilmalari orqali yozuvchi do‘stining kim ekanligini aniq ko‘rsatib o‘tayapti.

O‘quvchilarga “ilova” haqida bir muncha ma’lumot berilgandan so‘ng, ularni bu mavzuni tushungan yoki tushunmaganligini tekshirish uchun guruhlar asosida ishlaymiz. Har bir guruhga “Urushning so‘ngi qurboni” hikoyasini to‘liq matni havola etiladi va 5 daqiqa vaqt beriladi.

URUSHNING SO‘NGGI QURBONI

(hikoya)

Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to‘g‘rda hech kim o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustidan yopilgan, shinni dog‘i tekkan quroq dasturxon ham. hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq ham uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof jim-jit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to‘sinidagi uzun mixga ilig‘liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o‘ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar

ko'zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvillab qo'ydi. Shoikrom uyqu elta boshlagan ko'zlari bilan o'sha tomonga bir qarab qo'ydi-yu, ter hidi anqib turgan lo'labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o'sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib, tag'in g'ashlandi. "Ziqna bo'lmay o'l! - deb o'yladi xotinini so'kib. - Azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi".

Ichkarida chaqaloq yig'ladi. Beshikning g'ichirlagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big'illay boshladi. Kattasi ham uyg'o- nib ketdi shekilli, qo'shilishib yig'lashga tushdi.

Shoikrom siltanib qaddini rosladi.

- Ovozini o'chir, Xadicha!

Ichkaridan xotinining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi.

-Ovozi o'chsa koshkiydi! To'qqizkechasidajin tekkan bunga! «Kam-bag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi, - deb o'yladi Shoikrom ijirg'anib. - Shu kunimdan ko'ra urushga borib o'lib keta qolganim yaxshiydi».

Uni urushga olishmadi. To'qimachilik kombinatida montyor yetish-masmidi yo o'zi yaxshi ishlarmidi, har qalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urushning boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo'ldi-yu, zamona o'zgarib ketdi. Bir xil odamlar timoqqa zor. Uning xotini bo'lsa, yonidan o'tib ketsa ham boshqorong'i bo'laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo'larmishmi, deb ketma-ket uchta qiz tug'ib berdi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo'lsayam, erta-indin Gitlarning to'ng'iz qo'pishi ko'rinib qolgan bo'lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko'lanka tashlab turibdi. Hali u qo'shninikida aza ochiladi, hali bu qo'shninikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g'iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko'zi- ni chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko'r- di. U uylangandan keyin otadan qolgan hovlini o'rtadan ikki paxsa devor olib bo'lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo'lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqavergandan keyin Umri xola ro'z- g'oring boshqa bo'lsa,

o'zingga qayishasan, deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. o'zi kichik o'g'li Shone'mat bilan narigi hovlida qoldi.

Rangi uniqqan chit ko'ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq musulmon g'ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko'tarildi.

- Hali uxlamovmiding? - dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro'molini qayta o'rab.

- Ko'rmysizmi, chaqaloq tinchitmayapti. O'zim itday charchaganman.

- Bola bo'lgandan keyin yig'laydi-da, - dedi Umri xola yupatuvchi tovushda. - Yotaver. bolam. - U yana o'sha unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi.

Qaynona-kelin bir balo qilib, bolalami tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo'lida choynak-piyola, bir qo'lida zog'ora non keltirib dasturxon ustiga qo'ydi.

- Choy o'lib qopti, - dedi u zog'ora ushatarkan.

Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko^acha¹ ga o'tirdi.

-01 o'zing ham,- dedi u tomirlari bo'rtib chiqqan qo'llari bilan sochilgan uvoqlami yig'ib og'ziga solarkan. Shoikrom onasining bar- moqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo'qmidi, eslay olmadi.

-Ovqatingdan qoldimi? - dedi u cho'kkalab o'tirgancha choy quya- yotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so'radi.

- Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg'on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deytgandir...

-Yo'q. bolam. ovqat kerakmas, - dedi Umri xola shoshilib. - Xayol surib yotib uyqum o'chib ketdi... - U bir lahza jim qoldi-da, o'ziga ga- pirgandav sekin qo'shib qo'ydi.- Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo'y suti ichsa, dard ko'rma- ganday bo'lib ketadi, dedi.

- Hozir qo'y suti qatta, - dedi Xadicha. - Sigir suti otliqqa yo'g'-u... Shu paytda sigirimiz tug'gan bo'ardi-ya.

Shoikrom xotinining gapini eshitmadi. Birdan uning ko'z o'ngida deraza ostida pastak shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o'n kundan buyon holini so'ramaganiga afsuslanib, ichidan xo'rsiniq kel- di. Shone'mat Rossiyadan ko'chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan.

Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi. Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib, ukasidan hoi so'ragan edi. O'shanda Sho- ne'matning qoq suyak bo'lib qolganini, katta-katta ko'zlari nimagadir chuqur ma'no bilan o'ziga tikilganini ko'rgan edi.

«Yaqinda o'ladi, - deb o'yladi u onasining ko'ziga qaramaslikka harakat qilib, - baribir, o'ladi».

-Tuzukmi? - dedi u hammasi uchun o'zi aybdorday qovog'ini solib.

-Shukur, - Umri xola quit etib yutindi. - Hozir uxladi. - Onasi shu topda chiqib ovora bo'Mmagin, degan ma'noda gapirganini Shoikrom tushundi.

-Ertalab xabar olaman, -dedi u onasi o'midan turganda.

-Sendan nega gina qilarkan, bolam, - dedi Umri xola ayvon labida to'xtab. - Ko'rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qayta- san. Bu kunlar unut bo'lib ketadi, bolam. - Zinaga yechgan kalishining bir poyi to'nkarilib qolgan ekan, Umri xola oyog'ining uehi bilan to'g'ri- layman deb, ancha ovora bo'ldi. Keyin zinalardan enkayib tushdi-yu, sharpaday unsiz yurganeha, hovli etagiga qarab ketdi. Pastak eshik g'iy- qillab ochilib yopildi.

-Padariga la'nat shunday turmushning! - dedi Shoikrom bo'g'ilib. Keyin dasturxonni yig'ishtirayotgan xotiniga o'shqirdi.- Seniyam pa- darringa la'nat! Tumshug'ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o'tirsang.

-Nega menga o'dag'aylaysiz? - Xadicha tovoqni qoshiqqa urib, yig'lamsiradi. - Nima, meniyam Ilhom samovarchining xotiniday so'yib

ketsinmidi? Siz keehalari smenda bo'lsangiz. Men uchta jo'ja bilan jonimni hovuehlab o'tirganim yetmaydimi?!

Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o'girib, tishini g'ichirlatdi.

Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko'paydi. Erta bahorda ularning tug'ay deb turgan sigirini o'g'irlab ketishdi. O'sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong saharda bir nimani sezganday ko'ngli g'ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa xotini, onasi, bolalari dod solib o'tirishibdi.

Xadicha og'iroyoq emasmi, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, bilolmay qolibdi. Ertalab mrsa. ko'cha eshigi lang ochiq, yong'oqqa bog'log'liq sigir yo'q.

“Shu paytgacha sigir tug'ardi, ukamning og'ziga aqalli bir kosa sut tutanlim. - deb o'yladi Shoikrom o'kinib. - Qani o'shalar qo'imga tushsa, chopib tashlardim”.

Shundoq dedi-yu, egasi ming poylasin, o'g'ri - bir. Mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom samovarchining xotinmi pichoqlab ketishdi. Be-choraning bitta-yu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o'g'ri tushganini bilib, xotin sho'rlik dod solibdi. Eri choyxonada ekan. Yugurib borib echkinining arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo'ni-qo'shnilar qora qonga belanib yotganini ko'rishibdi.

-Shu kunda yana o'g'ri oralab qoldi, - dedi Xadicha ko'rpani qoqib tanha chetiga solarkan. - Qulupnay qizarmasdan bitta qo'ymay terib ketishyapti.

- Vahima qilma! - dedi Shoikrom qovog'ini uyib. - Bolalar terib yegan- dir. O'g'ri qulupnayga keladimi?

- Og'ziga bir dona olgan bo'lsa, buyunnasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini obehiqib sotsa, bir kosa jo'xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o'pirilib yotibdi?!

Vahima qilma! - dedi Shoikrom yana g'o'ldirab. Ammo bu safar o'zining yuragi seskanib ketganini payqadi. Ko'nglida paydo bo'lgan g'ashlikni sezdirmaslik uchun hovliga tushdi. Sekin yurib qulupnay push- talari oldiga keldi.

Anqlardagi suv chiroq nurida yaltirab, shamolda jimirlar. maijonday terilib rang olgan qulupnaylar suvga tegay-tegay deb turardi.

«Rost-da, - deb o‘yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, - bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo‘xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg‘on ga- pirmaydi. Bolalar yegan boisa, buyumasin, deyapti-ku. Pishiq, yoiat- maydi...

Bultur xotini shu qulupnay tufayli onasini qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli boiar deb ekkanmiz. norasidalaming nasibasiga tegmang, deb bobillab beribdi.

Shoikrom o‘shanda onasining yoz bo‘yi kelini bilan yuzko‘rmas bo‘lib yurganini esladi-da, yana shu gap xayoliga keldi. “Xadicha anoyi emas, qurumsoq...”

U aylanib yong‘oq tagiga bordi. Bordi-yu. chindan ham o‘sha tomon- dagi devoming bir cheti o‘pirilganini. ostiga tuproq to‘kilganini ko‘rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Nazarida devoming kementik joyidan birov mo‘ralab turganday boidi. Yong‘oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog‘i ostida to‘kilib yotgan devor tuprog‘i ham shubhali, vahimali ko‘rinib, darrov orqasiga qavtdi.

Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi. U chiroqni o‘chirib. sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi.

Kuzda o‘zi bilan ishlaydigan yigitning hovlisidagi so‘ritokdan g‘arq pishib yotgan uzumlarni o‘g‘irlab ketishganini esladi. Shamol borgan sari avjiga chiqar, hovlida yong‘oq barglari shovullab, shoxlari shubhali g‘i- chirlar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo‘- lardi.

Xadicha rost aytadi. O‘zi kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? Qo‘liga nima ilinsa olaveradi-da. Bordi-yu. o‘zi yo‘g‘ida uyini o‘g‘ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... «Vijdotsizlar! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foy- dalanib qoladiganlami qirish kerak».

Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlar uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g‘unajinini o‘g‘irlagani uchun, o‘lim to‘shagida yotgan ukasini oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli

bo'lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki,,o'sha xudo bexabarlardan.

U o'rtidan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o'kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraq- lab, yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, ammo endi bular uni qo'rqitol- mas edi. U yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho'ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo'llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig'liq turgan ikki o'ram simni oldi. Bir vaqtlar urushdan oldin u bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash'aladay yoritib berardi. Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin!

«Menga desa otib yubormaydimi! - deb o'yladi u ayvon labiga cho'q- qayib o'tugancha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. - Hama bitta haromxo'mi o'ldirganim. Bittasi o'lsa, boshqalari adabini yeydi».

U chaqqon harakat qilarkan, a'zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o'zi payqamas, faqat bir so'zni takrorlardi: «Menga desa otib yubor- maydimi!»

U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon etagidan olib o'tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiqib qo'ydi. Keyin birdan bolalari kechasi hovliga tushsa nima bo'ladi, degan xayol miyasiga urildi-yu, uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqusirab boshini ko'tardi.

- Ha?

- Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o'ladi! - dedi Shoikrom ko'zlari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, «xo'r» dedi-yu, boshini yostiqqa tashladi. Zum o'tmay tekis, chuqur nafas ola boshladi. Shoikrom ayvon chirog'ini o'chirib yana uyga kirdi. Har ehtimolga qarshi shundoq eshik tagiga, namatga ko'ndalang yotib oldi.

«Menga desa otib tashlamaydimi?» deb o'yladi yana o'shanday zarda bilan. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o'yladi. Shone'mat bolaligida ham zaifgina edi. Shoikrom har kuni uni maktabdan o'zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab

o'tirardi. Otasi o'lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o'qirdi. O'shanda Shone'mat yig'lamagan, ammo ichikib kasal bo'lib qolgan edi. Endi bo'lsa besh kunligi qoldimi-yo'qmi, aka bo'lib xabar ham ololmaydi.

Shoikrom uxladi, yo'qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi aralash dahshatli bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o'rnidan turib ketdi. Ayvon chirog'ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko'rdi-yu dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini. qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. «Boshqalari qochdi» degan fikr lip etib xayolidan o'tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog'i botib ke- tayotganini payqadi. Keyin buklanib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to'xtadi-yu, birdan cho'kkalab qoldi. Bir lahza ko'zlari olayib tikilib turdi- da, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluv- chi bir nido otilib chiqdi:

- Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchib borayotganini elas-elas his qilib o'zini yerga otdi. Titroq qoilari bilan loy changallaganicha cho'kkalab ko'ksiga mushtlay ketdi.

- Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar, boshqa qo'li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida, uning kalishi yotar, chamasi, sim oyog'iga tekkanida yulqib olmoqchi bo'lgan-u, qo'liga o'ralashib yiqilgan edi.

Shoikrom loyli marzadan emaklab borganicha, o'zini onasining quchog'iga otdi.

- Oyijon, oching ko'zingizni! - dedi u gezarib ketgan lablari bilan

onasining muzday yuzidan o'pib.

U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. Boshini ko'tarishi bilan marza chetida o'tirgan Shone'matga ko'zi tushdi. Necha haftalardan buyon o'rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib, emaklab chiqqan, ko'ylagining yelkalari osilib turar, katta-katta ko'zlari vahima bilan boqar edi.

Nima qilib qo'ydim, ukam! - dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin yana onasini ko'tarishga urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi.

-Sut ichmay zahar ichsam bo'lsamdimi, - dedi Shone'mat ovozi titrab.

Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

- Zahar ichsam bo'lsamdimi. - dedi Shone'mat yana o'sha ohangda. Aftidan, u yig'lay olmas, yigiashga madori yetmasdi. - Kechayam aytuvdim. ko'nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar.

Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadi. Eshitilmadi. Foydasi ham yo'q edi.

Lmn xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go'ristondan chiqib kelishayocganida Shoikrom odamlaming o'zaro gapini eshitib qoldi.

-Urush tamom bo'пти, eshitdingizmi?

1- guruh o'quvchilari mavzuni to'liq tushunmagan shekilli, ular asardan ilova konstruksiyalarini ajralib berisha olmadi.

2-guruh Bu guruh ishtirokchilari yangi mavzuni yaxshigina o'zlashtirganliklari asardan topgan misollardan ko'rsatib beribdi. Ular asarda yozuvchi qaysi o'rinlarda ilovalardan foydalanganligini ko'rsatib bera oldi.

“Rost-da, -deb o'yladi u pushtlar atrofida aylanarkan, -bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo'xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg'on gapirmaydi. Bolalar yegan bo'lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo'latmaydi.

Shoikrom o'shanda onasining yoz bo'yi kelini bilan yuzko'rmas bo'lib yurganini esladi-da, yana shu gap hayoliga keldi. "Xadicha anoyi emas, qurumsoq..."

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go'ristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning o'zaro gapini eshitib qoldi.

-Urush tamom to'pti, eshitdingizmi?

2-guruh o'quvchilari yuqorida keltirilgan misollarni topishib, tushuntirib berdilar.

O'qituvchi o'quvchilarga yanada mavzu tushunarli bo'lishi uchun yana bir bor tarqatma materiallar tarqatdi. O'quvchilarning endi bajaradigan vazifasi shu tarqatmalarga, adib asarda nima uchun ilova konstruksiyalaridan foydalanganligini tushuntirib, izohlab berishlari kerak.

1-guruh

Bu guruh o'quvchilari yangi mavzuni endi to'liqroq anglab yetishgan ko'rinadi. Ular asarda nima uchun ilova qilishlarini ishlatilganligini to'liq bayon etishibdi.

2-guruh

Bu guruh ishtirokchilari ham o'z fikrlarini to'liq va aniq bayon etishibdi.

O'qituvchi tomonidan ikkala guruhning ham bajargan ishlari ko'rib, baholab chiqulgunga qadar. O'qituvchi tomonidan quyidagi parcha o'quv beriladi: "Yarim kecha bo'lib qolgan, afrof jim –jit. Faqat olislarda it uvliydi. Ayvon to'sinidagi uzun mixga ilig'liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi... qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvillab qo'ydi".

O'qituvchi tomonidan topshiriq beriladi: Mana shu keltirilgan pachaning qaysi o'rinlarida ilovalardan foydalanilgan va tabiat holatidagi ichki bezovtalikni siz qanday tasvirlagan bo'lardingiz va buni davom etiring.

Har ikkala guruh ham o'z fikr-mulohazalarini ifodalashdi. O'qituvchi esa ular bildirgan fikrlarga o'z qarashlarini bildirib, mavzuni yanada mustahkamlashdi.

Qahramonlar haqida o'ylash, mulohaza yuritish, ularning kundalik hayoti, kechinmalari, xatti-harakatlarini taftish qilish, baholash jarayonida o'quvchilar ham aqlan, ham ruhan faollashadilar. Ustoz asarning tahlili matnidan estetik ta'sirlanish, tahlil asnosidagi insonni, uning ruhiy olamini teran his qilish-o'zlikni anglashga olib boruvchi ilmiy-pedagogik jarayon ekanini unutmasligi va buni talabalarga ham bildirib qo'yishi foydadan holi bo'lmaydi.

Dars oxirida hikoyaning davomini yaratishni ixtiyoriy uy vazifasi sifatida topshirish mumkin. Xohlovchi o'quvchilar hikoya qahramonlarining keyingi hayotini qanday tasavvur qilishlarini qog'ozga tushurib kelsinlar va unda ilovalardan foydalanishlari mumkin. Bu topshiriq o'quvchilarning tasavvurini boyitish va kengaytirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, hayotga, insonga munosabatini tinqlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Yakuniy qism:

Guruhlarning to'plagan ballari e'lon qilinadi va g'olib guruh rag'batlantiriladi. O'quvchilar baholanadi. Uyga avzifa beriladi.

XULOSA

Ta'limning qaysi turi yoki bosqichida bo'lishidan qattiy nazar, yangicha fikrlab, yangicha ishlash – taraqqiyot darovidir. Jamiyatimizdagi ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy o'zgarishlar ta'lim tizimini oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. “Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti”da ham: “Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang-barang jabhalarida muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bemalol erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak”⁵⁰ligi alohida ta'kidlangan.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizni yakunlar ekanmiz, quyidagi umumiy xulosalarga kelindi.

1. Badiiy matnda uchragan ilovalar muallif tomonidan muayyan maqsadda qo'llaniladi;
2. Ilova ligvopo'tikada o'ziga yondosh bo'laglari bir qancha til birliklaridan farqlanadi. Jumladan, ilova unga yondosh bo'lgan hodisalar parsellyatsiya, segmentatsiya, parenteza kabilardan farqlanadi.
3. Ilova konstruksiyalar kirish, kirtma, ajratilgan bo'lak, iboralar, to'liqsiz gap kabi birliklardan farq qilib, matnda ularga o'xshasada, lekin ekspressif sintaksisga xos xususiyatiga kiradi.
4. Badiiy matnda ilovalar bosh va ikkinchi darajali bo'laklar shaklida ham qo'llaniladi.
5. Ilovalar matnda faqat gap bo'laklari shaklidagina emas so'z birikmasi va gap shaklida ham kuzatiladi.
6. Ilova oldindan o'ylanmaganlik, to'satdan esga tushish natijasida sodir bo'ladi.
7. Ilovalarni maktab, litsey hamda kollej o'quvchilariga o'tishda turli xil innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanildi.

⁵⁰ Ta'lim taraqqiyoti. 1 maxsus son, Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti va o'quv dasturi. 1999. 65-bet.

Bir ushbu bitiruv malakaviy ishimizni xulosalar ekanmiz yuqorida oldimizga qo'ygan bir qancha maqsad va vazifalarimizni qisqacha bo'lsada bajara oldik deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. -174b.
2. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. - 686 b.
3. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. - 439 b.
4. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, 1997 yil 29 avgust.
5. Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent, 1999- yil.
6. Abdullayeva D.T. Mazmuniy subyekt va uning o'zbek tilida ifodalanishi: Filol. fanlari nomzodi. dis. ... avtoref. - T., 2001. – 25 b.
7. Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida // O'zbek tilini o'qitish metodikasi masalalari, Toshkent, Fan, 1966. 4 – 11 – betlar.
8. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi. –Toshkent, 1964.
9. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). –Toshkent: O'qituvchi, 1996.
10. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
11. Abdurahmonov Sh.A. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar, Filol.fanlari nom... diss. – Toshkent, 1997. – 24 b.
12. Abuzalova M.Q. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol. fanlari nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 1994. – 24 b.
13. Ashirboyev S. Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning ma'no va tarkibiy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri ... dis. – T., 1990. – 330 b.
14. Boboyeva A. To'liqsiz gapning... to'liqligi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. – №1. – B. 62-63.
15. Jamoliddinova D.M. Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi ...diss. avtoref. – Toshkent, 2009. - 26 b.

- 16.Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. - 156 b.
- 17.Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. - 160 b.
- 18.Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanlari d-ri ...diss. – Toshkent, 2009. - 314 b.
- 19.Yoʻldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish. – Toshkent: TDPU, 2007. -112 b.
- 20.Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 1989. - 112 b.
- 21.Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi. – : Nashriyotsiz, 2002. - 39 b.
- 22.Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. – Fargʻona: Nashriyotsiz, 1996. - 47 b.
- 23.Mahmudov N.M. Oybek sheʼriyatidagi oʻxshatishlarning lingvopoetikasi // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1985.- №6. 48-51 betlar.
- 24.Maxmudov N.M. Oʻzbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – T.: Oʻqituvchi, 1984. -156 b.
- 25.Maxmudov N.M. Funktsional va nofunktsional toʻldiruvchilar xaqida// Oʻzbek tili va adabiyoti. – 1981. - №1. – B.43-47.
- 26.Mahmudov N. Va boshq. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. T.,1991.
- 27.Mahmudov N. Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). T.: Oʻqituvchi, 1995.
- 28.Mahmudov N. Kesimning gapdagi maqomi. //Oʻzbek tili va adabiyoti. -T., 2009 №1.B. 44-55
- 29.Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar. -T., 1988.
- 30.Rixsiyeva G. Metafora haqidagi diss. avtoreferati
- 31.Toshaliyev I. Hozirgi oʻzbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta boʻlinish. Parsellyasiya.Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Zar qalam, 2004. - 145 b.
- 32.Turniyozov N. Matn lingvistikasi (maʼruzalar matni). – Samarqand: Nashriyotsiz, 2004. - 132 b.

33. Turniyozov N., Turniyozova K. Funksional sintaksisga kirish. – T.: Fan, 2003.
34. Turotova M. Ilovali konstruksiyalarning boshqa sintaktik konstruksiyalardan farqi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1980. – №1. – B. 53-56.
35. Shahobiddinova Sh., Isoqov Z. Matn va uni bog‘lovchi vositalardan biri // O‘zbek tili va adabiyoti, 2004. – №6. – B. 75-77.
36. Qurbonova M. O‘zbek tilshunosligida formal-funksional yondashuv va soda gap qurilishining talqini: Filol. fanlari d-ri dis... avtoref. - T., 2001. – 48 b.
37. G‘ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T.: O‘qituvchi, 1987.
38. G‘ulomov A. Sodda gap. -T., 1955.
39. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. /Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. № 1, 2, 3, 4,5 -T., 2007-2011.
40. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. II t. –Toshkent: Fan, 1966. 424b.
41. <http://www.edu.uz/>
42. <http://ziyo.edu.uz/>

Mundarija:

Kirish.	3
I bob. Ilova konstruksiyalar va ularning o‘rganilishi.	
1.1. Tilshunoslikda ilova konstruksiyalar muammosi.	8
1.2. Ilova konstruksiyalarning yondosh hodisalardan farqi.	14
II bob. Ilova konstruksiyalarning semantik-grammatik xususiyatlari.	
2.1. Gap bo‘laklari shaklidagi ilovalar.	23
2.2. Gap shaklidagi ilovalar.	31
III bob. Ishning amaliyotga tatbiqi.	
3.1. Darsliklarda ilovalarning berilishi.	34
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.	40
Xulosa.	55
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	57